



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



RESPUBLIKA  
TA'LIM MARKAZI

UMUMIY O'RTA TA'LIMNING  
**MILLIY O'QUV DASTURI**

MATEMATIKA





JİOINIYX



## 1. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH

### 1.1. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA MATEMATIKA TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

#### I. UMUMIY QOIDALAR

1. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirish Konsepsyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", Prezident Sh.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

3. Xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi tizimda vujudga kelgan muammolarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagi huquqiy va me'yoriy hujjatlarga asoslanadi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PF-4708-sonli "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 9-iyuldagи "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-son Qarori.

#### II. MATEMATIKA TA'LIMINING AMALDAGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga bilim berishning zamонавиy pedagogik innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning fan va texnika yo'nalishi bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim maktablari uchun majburiy bo'lgan Davlat ta'lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta'lim mazmuni bajarish, o'quv dasturiga zamон talablaridan kelib chiqib, fundamental, nazariy yoki eksperimental fan sifatida yondashish, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruв usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Matematika ta'lim tizimining oxirgi yillardagi vaziyati tahlili quyidagi dolzarb muammolar bilan aniqlanadi:

Matematika fanining jamiyatdagi o'rni yetarlicha baholanmaganligi;



Fan bo'yicha DTS talablarining yuqori belgilanganligi va o'quv dasturi yuklamasining oshib ketganligi;

Darsliklarda fan mazmunining «quruqligi», hayotdan ajralib va eskirib borayotganligi;

Fanni o'rganishga o'quvchilar qiziqishining sustligi;

Malakali matematika o'qituvchilarining kamligi;

Matematika fanining o'quv metodik ta'minoti (o'qituvchi kitobi, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

O'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, fan bo'limlari va mavzularining o'qitish ketma-ketligi hamda murakkablik darajasida vujudga kelgan nomutanosibliklarning mavjudligi;

Matematkani o'qitish metodlarining eskirganligi;

Umumta'limga fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvlarga e'tibor qaratilmaganligi;

Mavjud oliy ta'limga muassasalarida matematika fani yo'nalishida tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning bilim va ko'nikmalarini sifati bugungi kun talablariga mos kelmayotganligi.

### **III. MATEMATIKA TA'LIMINING MAQSADI VA VAZIFALARI**

Matematika ta'limining ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Iqtisodiy talablarni bajarish uchun bunyodkor va ijodkor kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, bu yutuqlardan iste'molchi sifatida foydalanuvchilarga ham sifatli ta'limga berilishi lozim.

Fan texnikaning keskin rivojlanishi, olamning globallashuvi hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi insonlarning dunyo-qarashini, muvaffaqiyatga erishish usullarini, inson salohiyati, qobiliyati hamda yaratuvchanlik faoliyatini jamiyatning asosiy kapitali bo'lib xizmat qiladi. Bu holatda jamiyatdagagi har bir o'quvchi shaxsining jamiyatda raqobatbardosh bo'lib shakllanishi, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashuvchan, faol, ijtimoiy yetuk salohiyatli, yuqori darajadagi bilim egasi, ruhan va qalban chiniqqan komil insonni shakllantirish davlatimiz oldidagi vazifalardan biridir.

#### **Matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi:**

O'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'limga olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

Jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

Milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik



madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalash;

o'quvchilarning kuzatuvalar orqali amaliy faoliyatlarini bog'lagan holda loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, kreativ, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil, qiziquvchanlik, muammolarni hal qilish, yangiliklar yaratishga bo'lgan ko'nikmalarini namoyon qilish va rivojlantirishdan iborat.

### **Matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari:**

o'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalari, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash;

inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lif olish ko'nikmalarini shakllantirish;

fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ijodkorlik (kreativlik) ni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

hozirda matematika fanini nazariylashtirgan holda o'qitishga, o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashishdan ma'lum darajada voz kechib, o'quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirish.

## **IV. MATEMATIKA TA'LIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

Yuqorida tahlillardan kelib chiqib, xalq ta'limi tizimida matematika fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq:

matematika fani davlat ta'lif standarti talablarining avvalo kelajakdagi zamонавиy davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, XXI asr ko'nikmalariga mos ta'lif sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

muktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar, oliy ta'lif muassasalari hamda ilmiy-uslubiiy tadqiqot tuzilmalari o'rtasidagi yaqin hamkorlikni, uzluxsizlikni va uzviylikni ta'minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarida matematika fanlarini o'qitish sifatini oshirish, hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini tashkil qilish va faoliyatini rivojlantirish;

matematika fani bo'yicha kadrlarni, xususan qishloq joylardagi maktablarning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;



matematika fani bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish;

iqtidorli yoshlarni aniqash hamda ularning matematika fani bo'yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirot etishini hamda sovrinli o'rirlarni egallashini ta'minlash;

matematika fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lif tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish;

matematika fanining mazmunini takomillashtirish, optimallashtirish va uni boshqa umumta'lif fanlari bilan o'zaro integratsiyasini kuchaytirish;

o'quvchilarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, matematik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va ijodkorlik kompetentsiyalarini shakllantirish;

matematikani o'qitish jarayoni samaradoriligini va natijaviyligini ta'minlashda zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish;

o'quvchilar yutuqlarini baholashning ilg'or xoriji tajribalari va bu boradagi xalqaro tadqiqotlar natijalariga tayanib, yangi baholash tizimini yaratish hamda u asosida matematika fanini bilish darajasini baholash bo'yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy qilish;

matematika fanini o'qitishning yangi sifat bosqichiga ko'tarish, jumladan zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan, elektron darslik hamda zamonaviy laboratoriya jihozlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning yangi ilmiy yo'nalishlari va tamoyillarini tadbiq etish;

ta'lif va tarbiyani uyg'un olib borish, o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki ma'naviy, ahloqiy yetuk shaxs sifatida shakllantirish;

matematika darslarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lif va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, o'quvchilar dunyoqarashini, tafakkuri, mantiqiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

matematika o'qitishda sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan to'garaklar, fakultativ va ellektiv kurslar mazmunini tubdan yangilash;

matematika fanini o'qitishning ilmiy metodik ta'minotini rivojlantirish;

xalqaro fan olimpiadalarida golib bo'lgan yoshlar va ularning murabbiy ustozlari mehnatini ragbatlantirish tizimini takomillashtirib borish;

ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

matematika fani yo'nalishida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish.



## V. MATEMATIKA FANINING O'QUV-METODIK TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH

Matematika fanining ilmiy metodik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida matematika fani bo'yicha milliy dastur ishlab chiqish;

matematika fani bo'yicha umumiyligida o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yangi, kelajak faoliyatlarida zarur bo'ladigan zamonaviy ehtiyojlardan kelib chiqib, bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarini ishlab chiqish;

umumiyligida o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasida belgilangan matematika fani o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;

tayanch o'quv rejaga muvofiq matematika fanining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

matematika fani bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarning (darslik, ish daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, multimediali ilovalar) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy qilish;

matematika fanining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, shakllantiriladigan ko'nikma va kompetensiyalardan kelib chiqqan holda yangi baholash tizimini ishlab chiqish.

Matematika fani bo'yicha yangi o'quv-metodik majmular quyidagi tamoyillar asosida yaratish belgilanadi:

o'quv-metodik majmualarning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yaratilganligi;

o'quvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

o'quvchilarning mantiqiy fikrashi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlarning majmualarga singdirilganligi;

matematika fanidan muqobil darsliklar tizimining yo'lga qo'yilganligi;

o'quv-metodik majmualarning zamonaviy didaktik, ilmiy-metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga mos ravishda ishlab chiqilganligi.



## V. MATEMATIKA FANI O'QITUVCHILARINING UZLUKSIZ MALAKASINI OSHIRISH

Maktabda matematika ta'lmini yangi sifat bosqichga olib chiqish - bevosita maktab o'qituvchilarining salohiyatiga, kasbiy mahorati va ijodkorligiga ham bog'liq. Shu bois, matematika fani o'qituvchilarining malakasini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish matematika ta'limi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Matematika fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish quyidagi yo'naliishlarda amalqa oshiriladi:

Matematika fani o'qituvchilarining fan bo'yichha bilim, ko'nikma va mahoratini uzlusiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lif sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni an'anaviy va masofaviy shakllardan fodalanib oshirishiga sharoit yaratish;

o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, ilmiy taddiqot va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning pedagogik nufuzini oshirish va kompetentligini rivojlantirib borish;

o'qituvchining shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish ko'nikmalarini shakllantirish, ularining o'z pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, onlayn va oflays, video va televizion darslarni tayyorlash va o'tkazish ko'nikmalarini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirib borish;

dars jarayonida ilg'or ta'lrim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash.

## VI. MATEMATIKA FANINING MODDIY-TEXNIK TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH

Matematika fanini o'qitishning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash maqsadida quyidaqи tadbirlar amalqa oshiriladi:

Matematika fanini o'qitishning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, zamonaviy jihozlar va texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Maktablarni zamonaviy o'quv sinflari va laboratoriyalari, video konferensiya zallari, interaktiv o'quv qurilmalari, sensorli doska va planshetlar, yangi turdagи o'quv mebellari, jihozlari va asbob-uskunalar, ko'rgazmali qurollar, kompyuter texnikasi va boshqa o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlash;

“Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich SMART sinflari, STEAM mashg’ulotlarini o’tkazishga mo’ljallangan o’quv sinflari va ustaxonalari tarmog’ini joriy etish.



## **VII. MATEMATIKA FANINI O'QITISHGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARНИ JORIY ETISH**

Matematika ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalarini joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

barcha ta'lim muassasalarini tezkor va barqaror internet tarmog'iga ularash;

ta'lim muassasalarini raqamli texnologiyalar, electron, multimediali resurslar va tegishli dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlash;

o'quvchilarning muqtaqil bilm olishlariga imkon beruvchi ta'lim platformalarini yaratish va ularga matematika fani bo'yicha electron kutubxona, darslarning o'quv-uslubiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan barcha electron resursslarni, video darslarni, multimediali interaktiv animatsion ilovalarni joylash;

televideniye orqali berib borilayotgan "Onlayn mакtab", "Kasbiy rivojlantirish" kurslarining matematikaga oid mashg'ulotlarining to'liq versiyasini yaratish va platformaga joylab borish;

maktabda o'tilgan dars va mashg'ulotlarning oflays versiyalarini tayyorlash va platformaga qo'yib borish, onlayn konfrensiyalarni o'tkazish imkoniyatlarini yaratish hamda matematikadan sinfdan va maktabdan tashqari turli masofaviy ta'lim dasturlari va matematika fanini chuqurroq o'rganishga qaratilgan ellektiv kurslarini tashkil etish.

## **VIII. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR**

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

Rivojlangan davlatlar qatoridan o'rın olish uchun bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli, raqobatbardosh, kompetent kadrlarni tayyorlanadi;

Konsepsiya umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablar uchun asos bo'ladi;

Konsepsiada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga keng joriy etish o'quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi;

Matematika fanlarini o'qitish bosqichlari, o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni va o'quvchilarning bilim, ko'nikma a kompetensiylariga qo'yiladigan talablar me'yorlari aniqlashtiriladi;

STEAM ta'limini joriy etish orqali o'quvchilarining fanlar integratsiyasi asosida savodxonlik darajasini oshiradi;

ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlari va majmualarni yaratish hamda ularni yagona axborot ta'lim platformasiga joylashtirish tizimi yaratiladi;



tayanch o'quv rejaga muvofiq matematika fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, yangilangan mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqiladi;

matematika fanlarining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, davlat ta'lif standartlari talablaridan kelib chiqqan holda yangi baholash tizimini ishlab chiqiladi hamda u asosida matematika fanini bilish darajasini baholash bo'yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy qilinadi;

o'quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratiladi va mamlakatimiz o'quvchilarining mazkur xalqaro baholash dasturlariga muosib qatnashishi ta'minlanadi;

matematika fanlari bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarni (darslik, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, elektron darsliklar) yangi avlodini ishlab chiqiladi va ta'lif jarayoniga joriy etladi;

matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha innovatsion metodikalar yaratiladi;

STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lif-tarbiya berishda umumta'lif fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratiladi;

o'quvchilarni o'quv loyiha va o'quv-tadqiqotchilik rivojlantiriladi;

umumi o'rta ta'lif fanlari bilan o'zaro integratsiyasi orqali o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etiladi;

matematika fani o'qituvchilarining fan bo'yichha bilim, ko'nikma va mahoratini uzlusiz yangilab borish maqsadida, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy axborot maydoni yaratiladi hamda malaka oshirish tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangilanadi;

ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilib, yagona virtual muhit - axborot ta'lif platformasi ishga tushiriladi, va unga matematika fani bo'yicha electron kutubxona, darslarning o'quv-uslubiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan barcha electron resurslarni, video darslarni, virtual laboratoriya, multimediali interaktiv animatsion ilovalar joylanadi;

Maktablar zamonaviy o'quv sinflari va laboratoriylari, yangi turdag'i o'quv mebellari, jihozlari va asbob-uskunalari, ko'rgazmali qurollar, kompyuter texnikasi va boshqa o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlanadi hamda "Zamonaviy maktab" davlat dasturi doirasida umumi o'rta ta'lif maktablari bosqichma-bosqich SMART sinflari, STEAM mashg'ulotlarini o'tkazishga mo'ljallangan o'quv sinflari va ustaxonalari tarmog'i joriy etiladi.



## II. MATEMATIKA FANI TAVSIFI

### 2.1. MATEMATIKA FANINING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI VA UNI O'QITISHGA TURLI YONDASHUVLAR

Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish hamda mamlakatimiz yoshlarini matematika go'zallikllaridan bahramand bo'lislilariga sharoit yaratib berish – barcha uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofda kechayotgan voqeа va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda hamda ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhim mulohaza yuritishga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yunalishlaridan biri sifatida belgilandi hamda matematika ilm-fani va ta'limi rivojlantirishini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi", 2019- yil 9- iyuldagи "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-sonli Qarori, 2020- yil 7- maydagи "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarori, 2020- yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta'limini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan.

Xususan, mazkur dasturdan o'rin olgan "Matematika ta'limini rivojlantirish konsepsiysi" yuqoridaagi matematika ta'limini har tomonlama takomillashtirish hamda yangi sifat bosqichiga olib chiqish yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofimizdagi voqeа va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib



berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham *matematik madaniyat* — umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lif olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsn shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fantexnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lif tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Bundan ta'lif bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA - o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik.

Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS - matematika va tabiiy fanlar ta'lif sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lif tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

STEAM (S – science - tabiiy fanlar T – technology - texnologiya, E – engineering - muhandislik, A – art - san'at, M – mathematics - matematika) ta'lif texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu texnologiyani amalga oshirishda o'quvchilar tomonidan turli texnik



qurilmalarni yasash uchun loyihalar yaratish, loyiha asosida qurilmaning maketini yaratish va uni amaliyatda ishlatib ko'rish, kamchiliklarini topish hamda uni bartaraf etish kabi vazifalar bajariladi.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallahni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limgning asosini amaliy, tadbiqiyo yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'limga fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'limga samaradorligini oshiradi.

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyatga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko'proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarini shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu o'rinda loyiha ishlarining o'rni e'tiborga molik. O'quvchilar bir o'quv yilida o'zları qiziqqan fani yoki ta'limga sohasidan faqat bitta loyiha ishini bajarishlari tavsiya etiladi. Loyiha ishi mavzulari o'qituvchilar tomonidan bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida muammoli vaziyat yoki keys sifatida tanlanadi. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilar alohida-alohida yoki qiziqishlariga qarab 3-4 kishilik guruh bo'lib ishlashlari ham mumkin. Loyiha ishi o'quv yili oxirida o'tkaziladigan himoya bilan tugaydi. Himoyani bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida konferensiya tarzida o'tkazilishi mumkin. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilarning individual yoki guruhiy ishi quyidagi o'quv faoliyatlarni o'z ichiga olishi mumkin: o'z izlanish faoliyatlarini rejallashtirish, vazifalarni o'zaro taqsimlab olish, oldilariga o'quv maqsadlarini qo'yish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish, mavzuga doir muammoli vaziyat yechimlarini qidirish, ulardan eng maqbulini tanlash va uni asoslash, zarur hollarda so'rovlar yoki tajribalar o'tkazish, loyiha ishi natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash, o'z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash, loyiha ishi himoyasi uchun taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish. O'quvchilar loyiha ishi muammosi bo'yicha izlanishlarini odatda darsdan tashqari mustaqil mashg'ulotlarda olib borishadi.

## 2.1. MATEMATKA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI

Matematika fanini o'qitishda nafaqat uning bo'limlar orasidagi o'zaro ichki, balki tashqi, ya'ni turdosh blok-modullar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, quyidagi fan yo'nalishlari bilan o'zaro chambarchas aloqalari muhim hisoblanadi:

 **Ona tili va adabiyot, xorijiy tillar** orqali shakllantiriladigan kompetensiylar matematika fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda, yozma va og'zaki ravishda o'z qarashlarini ravon bayon etish malakalarini hosil qilishda, ilmiy atamalarni to'g'ri qo'llash hamda babs-munozaralar jarayonida erkin muloqot qilishga o'rgatishda muhim o'rinni tutadi.

 **Informatika va axborot texnologiyalari** fani yordamida matematika fanini o'qitish jarayonining samaradorligini turli ko'rinishdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish orqali oshirishga ulkan imkoniyatlarni yaratadi.

 **Fizika** fanini o'qitishda o'quvchilar tabiat hodisalarini va asosiy fizik jarayonlarni anglash bilan birga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda matematik formulalarni qo'llashni o'rganadilar. Ko'pgina fizik masalalar tenglama yoki tenglamalar sistemasini tuzish va ular bilan ishslash ko'nikmasining shakllangan bo'lismeni taqozo etadi. Fizika fanini o'qitishda matematika fani nafaqat hisoblash apparati sifatida, balki matematik mulohazalar yordamida voqelik, hodisaning xarakteri haqida fizik xulosalar chiqarishga hamda mazkur jarayonlar tadqiq qilish, matematik tenglamalarni yechish orqali fizik hodisalar haqida fikr yuritish imkonini beradi. Fizik masalalarni matematika darslarida tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatni, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan hayotiy muammolarni hal qiliish, kundalik faoliyatlarida foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

 **Biologiya** fani o'quvchilarda jonli tabiatning obyekti va tizimini his etishni, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi aloqalarni shakllantiradi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobjiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his qilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi. Matematika darslarida jonli tabiatning biologik qonuniyatları va modellari haqidagi hayotiy masalalarni tahlil qilish orqali bu ikki fan orasidagi integratsiya ta'miinlanadi.

 **Kimyo** fani o'quvchilarda organik va anorganik moddalar va tuzilmalarni tabiatning obyekti sifatida his etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Matematika darslarida moddalar va tuzilmalarning tuzlishiga oid geometrik, sifat va miqdoriy kattaliklarni tahlil qilish orqali



ularning kimyoviy xususiyatlarini o'rganish, tadqiq qilish hamda xulosa chiqarish orqali bu ikki fan orasidagi uzviy aloqadorlik ta'miinlanadi.



**Geografiya** fani o'quvchilarda tabiat in'omlari va insonning iqtisodiy faoliyati natijasida yaratilgan obyektlarni tizimli ravishda, birgalikda his etishni shakllantiradi. Matematika darslarida geografik ob'yektlarga doir hayotiy masalalar yechish va tahlil qilish orqali bu ikki fan orasidagi aloqadorliklar aniqlanadi.



**Texnologiya** fani orqali tarkib toptirilgan kompetensiyalar matematika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ijodiy loyiha tayyorlash malakalarini hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.



**Iqtisodiy bilim asoslari** fanini o'rganish jarayonida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatishdan iborat. O'quvchilarda iqtisodiy masalalarning matematik modelini qurish va matematika fani yordamida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish u asosida bashoratlar qilish ko'nikmalari rivojlantiriish muhm ahamiyat kasb etadi.



**Tadbirkorlik asoslari** fanini o'rganish o'quvchilarning kelajakdag'i hayotiy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishda matematikaning o'rni beqiyos bo'lib, tadbirkor mablag'lari va sarmoyasini iqtisodiyotga jalg qilish maqsadida ishlab chiqiladigan biznes reja matematik hisob-kitoblar yordamida asoslab berilishi lozim bo'ladi. Tadbirkor faoliyatida foyda, zarar va daromad hamda tavakkalchilik kabi muhim omillar borki, ular ham oldindan matematik hisob-kitoblar yordamida asoslaninshi – tadbirkotlik faoliyatining samaradorligini kafolarlashda muhim o'rinni tutadi. Matematika darslarida iqtisodiy muammo va masalalarni yechish, matematika fani mazmunini hayotiy masalalr bilan boyitadi va o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishni oshishiga olib keladi.



**Tarix** fani matematika fani bilan ham bevosita bog'langan. Ilm-fan yutuqlarining ishlab chiqarish sohalari, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishi va atrof-muhit holatiga ta'sirini ko'rsatishda tarixiy ma'lumotlarning ahamiyati kattadir.



### III. MATEMATIKA FANI BO'YICHA O'QUVCHILARDA RIVOJLANTIRILADIGAN KOMPETENSIYALAR

#### 3.1. TAYANCH KOMPETENSIYALARNI MATEMATIKA FANI ORQALI O'QUVCHILARDA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'limga tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Aniq fanlar bloki yo'nalishidagi fanlar orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish ular o'zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiyalarini** shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish, to'g'ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur. Xususan, matematika fanining o'z ilmiy tili, o'z tushunchalari, belgi va timsollari ham mavjud bo'lib, bu tilda muloqot qilish - kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish omili sifatida qaralishi lozim bo'ladi.

Fanlarni o'qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasini** samarali rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni darslik va turli o'quv manbalari bilan ishlash, matematika faniga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda turli amaliy dasturiy paket va ta'minotlardan, mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

**O'z-o'zini rivojlanish kompetensiyasini** shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan fazilatlarga ega bo'lish, Vatanni sevish, jamiyat va tabiat haqidagi bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlarga xabardor va daxldor bo'lish, doimo zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallahsga intilish, hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur. Shu o'rinda matematika fanini puxta o'rganish orqali o'quvchilar tartib-intizomga o'rqnadilar, har bir muammoga matematik masala sifatida qarab, uni yechishda qat'iyatli bo'ladilar.

**Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini** shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlanishdan iborat. Shuningdek, matematika ularni haqgo'y, nohaqlikka befarq bo'lmashlik va vatanga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalaydi.



Matematika fanini puxta o'rgatish orqali o'quvchilarni jamiyatning faol fuqarosi sifatida rivojlantirib borishga zamin yaratiladi.

## **2.2. MATEMATIKA FANIGA OID KOMPETENSIYALAR. “AL-JABR” MILLIY TA’LIM STANDARTLARI TIZIMI**

Matematika fani bo'yicha milliy ta'lismi standartlarini yaratishga yondashuv tizimli, yani muayyam tizimga solingan bo'lib, u "Al-jabr" deb nomlanadi. Bu nomda o'ziga xos "tiklanish" ma'nosi mujassamlangan.

Standartlar ta'limga boshlang'ich davridanoq barcha o'quvchilarni imkon qadar keng qamrab olib, ularning o'qish jarayonida to'liq ishtirok etishi uchun imkoniyat va ta'lim sohasida maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilarning maksimal darajadagi ishtirokini ta'minlash uchun tegishli sharoitlarni yaratib berishi lozim. Standartlar barcha o'quvchilarga kelgusida ta'limga davom ettirish va mehnat faoliyatini boshlash uchun tayyorgarlik ko'rish yo'lida erishilishi kerak bo'lgan aniq marralarni belgilab beradi. Aniqroq qilib aytganda, standartlar - o'quvchilar nimani tushunishi va nimani bajara olishini belgilab berishi lozim.

Matematika fani bo'yicha ta'lim standartlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari (11- sinf) bitiruvchilarining matematika fani bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yilgan umumlashgan talablardan iborat bo'lib, ular matematik mazmun va matematik amaliyot standartlariga bo'linadi.

### **MATEMATIK MAZMUN STANDARTLARI (bilim va ko'nikmalar)**

Qisqacha tavsifi: Asosiy matematik tushunchalar va munosabatlar mohiyatini tushunish va ulardan tipik o'quv topshiriqlarini bajarishda foydalanish.

Ushbu standartlar o'quvchilar matematikani o'rganish orqali nimani tushunishi va nimalarni bajarishga qodir bo'lish kerakligini belgilab beradi. Matematikada tushunishning o'ziga xos belgilardan biri – bu o'quvchining matematik o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda muayyan matematik ifodaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani yoki muayyan matematik qoidaning qayerdan kelib chiqishini asoslab berish qobiliyatidir. Matematik tushuncha mohiyatini tushunish va tipik amallarni bajarish ko'nikmasi bir xilda muhim bo'lib, ular muayyan murakkablik darajasidagi standart topshiriqlar yordamida baholanadi.

Matematik mazmun standartlari umumlashgan talablar ko'rinishida ifodalanib, ular matematikaning quyidagi bo'limlarini qamrab oladi (kelgusida ishlatish qulay bo'lsin uchun bo'limlar nomi ikki bosh harfi bilan kodlanadi):

- **Sonlar va amallar (SA);**
- **Algebra va funksiyalar (AF);**
- **Geometriya va o'lchashlar (GO');**



- **Statistika va ehtimollik (SE);**
- **Matematik analiz asosari (MA)**

### **Sonlar va amallar (SA)**

1. Sonlar va miqdorlar(kattaliklar) haqida tushunchaga ega bo'lish, ularni tasvirlash usullarini va sanoq sistemalarini bilish;
2. Sonlar va kattaliklar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va tushunish hamda matnli masalalarni yechishda qo'llash;
3. Matematik amallar mohiyatini bilish va ular o'rtasidagi munosabatlarni tushunish;
4. Sonlar va kattaliklar ustida hisoblashlarni qiyinchiliklarsiz bajarish, natijaga tegishli baho berish va ularni chamlash.

### **Algebra va funksiyalar (AF)**

1. Tabiat va jamiyatdagi qonuniyatlar, munosabatlar mohiyatini tushunish;
2. Funksiyalar va algebraik belgi va timsollar yordamida hayotiy vaziyatlar va tabiatdagi hodisalarini matematik tilda ifodalash va tahlil qilish, bu jarayonlardagi o'zgaruvchilar orasidagi munosabatlarni matematik nuqtai nazardan talqin qilish;
3. Miqdoriy munosabatlarni tushunish va ularning matematik modelini tuzish hamda ulardan foydalanish;
4. Chiziqli, kvadratik, ratsional, irratsional, ko'rsatkichli (eksponensial), logarifmik, darajali va trigonometrik tenglamalar, tengsizliklar va ularning sistemalarini yechishda standart yechish metodlarini qo'llay olish hamda yechimlarni ko'rgazmali ifodalash;
5. Algebraning asosiy tushunchalari, formulalari, g'oyalari va metodlarini bilish va ulardan masalalar yechishda foydalanish.

### **Geometriya va o'lchashlar (GO')**

1. Yassi va fazoviy geometrik shakllarga doir asosiy tushunchalar, ularning asosiy xossalarni amaliy mazmundagi masalalar yechishda qo'llay olish, chizma, model va real dunyodagi geometrik shakllarni taniy olish;
2. Geometrik munosabatlar haqida matematik va mantiqiy fikrni rivojlantirish;
3. Koordinatalar sistemasi va boshqa tasvirlash tizimlarida fazoviy munosabatlarni tasvirlash va ularning geometrik o'rnini aniqlash, sodda geometrik yasashlarni amalga oshirish;
4. Matematik vaziyatlarni tahlil qilishda simmetriya va geometrik shakl almashtirishlardan foydalanish;
5. Isbot qilish metodlari va masalalarni yechish algoritmlaridan foydalanish, masalalar yechish jarayonida asosli matematik mulohazalar yuritish;



6. Masalalarni yechishda geometrik modellashtirish, fazoviy mushohada va vizuallashtirish usullaridan foydalanish;

7. Turli ob'ektlarning o'lchanadigan elementlarini, o'Ichov birliklarini bilish, o'Ichov tizimlari va jarayonlarining mohiyatini tushunish;

8. O'lchash jarayonida mos o'Ichov usullari, formulalar, o'quv qurollari, multimediali interaktiv ilovalar, kalkulyator va o'Ichov asboblaridan foydalanish.

### **Statistika va ehtimollik (SE)**

1. Kerakli ma'lumotlarni topish, aniqlash, yig'ish va ularga ishlov berish hamda natijalarni talqin qilish va turli vositalar yordamida taqdim qilish;

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun mos statistik ishlov berish usullarini tanlash va qo'llash;

3. Ma'lumotlar asosida tegishli xulosa qilish va bashoratlarni ishlab chiqish va ularni baholash;

4. Tasodifiy, statistik hodisa va jarayonlar haqida tasavvurga ega bo'lish, ularni tadqiq qilish, ehtimollik modellarini ishlab chiqish, ularni talqin qilish, baholash va ulardan foydalanish.

### **Matematik analiz asoslari (MA)**

1. Funksiya, funksiyaning aniqlanish sohasi, qiymatlar to'plami tushunchalarini bilish, funksiyalarning turlari: o'suvchi va kamayuvchi, juft va toq, davriy, teskari va murakkab funksiyalarni taniy olish, funksiyaning umumiyl xossalari: nollari, o'sish va kamayish oraliqlari, musbat va manfiy oraliqlari, eng katta va eng kichik qiymatlari, davri, tushunchalarini bilish va ularni sodda hollarda aniqlay olish;

2. Funksiyaning uzluksizligi va hosilasi tushunchalarining mohiyatini bilish, hosilaning geometrik va fizik ma'nolarini tushunish hamda funksiyalarni hosila yordamidan tekshirish algoritmini bilish va undan funksiyalarning xossalarni aniqlashda, shuningdek, amaliy, ekstremumga doir masalalarni yechishda qo'llay olish;

3. Darajali, ratsional, irratsional, ko'rsatkichli (eksponensial), logarifmik, trigonometrik, teskari trigonometrik funksiyalarni taniy olish va ularning asosiy xossalarni bilish hamda ulardan tenglama va tengsizliklar, ularning sistemalarini yechishda, shuningdek, amaliy masalalarni yechishda qo'llay olish;

4. Boshlang'ich funksiya va aniq integral tushunchalarining mohiyatini bilish va ulardan turli amaliy (yuz va hajmlarni hisoblash va bajarilgan ishni topish) masalalarni yechishda foydalana olish.



## MATEMATIK AMALIYOT STANDARTLARI (kompetensiyalar)

Qisqacha tavsifi: O'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalarni yechishda va notanish vaziyatlarda qo'llay olish (kompetensiyalar).

Mazkur standartlar ham umumlashgan mazmundagi amaliy tatbiq standatlardan iborat bo'lib, ular o'quvchilarning quyidagi aqliy faoliyati sohalarini qamrab oladi (kelgusida ishlatish qulay bo'lsin uchun aqliy faoliyat sohalari, mos ravishda M1, M2, M3, M4 va M5 bilan kodlanadi):

- **Mulohaza yuritish (M1):** matematikaga oid fikrni asoslash, isbotlash yoki o'zgalar fikriga munosabat bildirish uchun mantiqan asosli va tushunarli dalillarni keltirish;
- **Modellashtirish (M2):** o'quv va hayotiy muammolarni matematika tilida ifodalash, ularning matematik modelini qurish;
- **Muammoni yechish (M3):** matematikani qo'llab muammoni hal qilish;
- **Muloqot qilish (M4):** matematik tushuncha, belgi va timsollar asosida matematika tilida o'zaro muloqot qilish;
- **Ma'lumotlar bilan ishlash (M5):** ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va turli shakllarda tasvirlash.

### **Mulohaza yuritish (M1)**

1. Aqliy faoliyatga asoslangan mantiqiy fukrlash, taxmin qilish, xulosa chiqarish, dalillar keltirish, asoslash, xulosalash, asoslov va sabablar ustida fikr yuritish;
2. Qo'llaniladigan ta'riflar, qoidalar, tushunchalar, algoritm va metodlar, matematik yechimlar va xatolar ustida fikr yuritish;
3. Matematik tushunchalar orasidagi aloqalarni tanib olish va ulardan foydalanish;
4. Yaxlit matematik tushunchani hosil qilish uchun matematik tushunchalarni birlashtirish yoki birini ikkinchisining ustiga qurish.

### **Modellashtirish (M2)**

1. Muammoli vaziyatlar mohiyatini o'qib tushunish, tahlil qilish va unda keltirilgan muammoni aniqlash;
2. Tabiat, jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni tushuntirish va modellashtirish uchun turli matematik talqin usullaridan foydalanish;
3. Muammoni matematik masala ko'rinishda ifodalash, matematik modelini tuzish.

### **Muammoni yechish (M3)**

1. Hayotiy muammo va amaliy matematik masalalarni yechish uchun o'r ganilgan matematik tushunchalar, faktlar, g'oyalilar, qonuniyatlar, algoritmlar va metodlaridan foydalanish;



2. Muammo (masala)ni yechishda mantiqiy, kreativ fikrlash, matematik mushohada yuritish va ilmiy izlanish usullari: kuzatish, o'lchash, tajriba o'tkazish, analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya, taqqoslash va analogiyalardan foydalanish;
3. Muammo (masala)ni yechishning muqobil usullari va algoritmlarini tahlil qilish, tanlash va asoslash;
4. Muammo (masala)ni yechish jarayonida yangi matematik bilimlarni hosil qilish va ularni o'zlashtirish;
5. Matematik taxminlarni ifodalash va tadqiq qilish, matematik asoslash, taqqoslash va baholash;
6. Matematik yechimni real muammo mazmuniga ko'chirish va matematik masalada tasvirlangan real muammoga nisbatan uni talqin qilish va topilgan yechimning muammo haqiqiy yechimiga mosligini, yaqinligini baholash;
7. Muammoni hal qilish algoritmlarini mustaqil yoki jamoaviy bajariladigan, hayotiy vaziyatlar asosiga qurilgan kichik tadqiqot, loyiha ishini bajarish jarayonida namoyish qilish.

#### **Muloqot qilish (M4)**

1. Matematik fikrni og'zaki va yozma yetkazish, o'zgalar bilan o'zaro muloqot qilish uchun matematika tilidan, belgi va timsollardan o'rnda foydalanish;
2. Boshqalarning matematikaga oid fikrlarini tushunish, tahlil qilish, baholash va ularga munosabat bildirish.

#### **Ma'lumotlar bilan ishlash (M5)**

1. Tasdiq, jumla va ma'lumotlarni turli shakl va ko'rinishlarda tasvirlash, bir ko'rinishdan ikinchi ko'rinishga o'tkazish, tahlil qilish, matematik talqin qilish va ulardan foydalanish;
2. Matematik fikrni aniq og'zaki, yozma va tasvirli ifodalash uchun matematika tilidan, belgi va timsollardan hamda kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish;
3. Masalani yechish uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash, yig'ish va ularga ishlov berish;
4. Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun mos statistik ishlov berish usullarini tanlash va qo'llash;
5. Ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va bashoratlarni ishlab chiqish va ularni baholash;
6. Etimollar nazariyasi asosiy tushunchalarini tushunish va ulardan foydalanish.



Matematik amaliyot standartlari har bir sinf kesimida mazmun standartlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tegishli mazmun standartlarida o'z aksini topgan. Amaliyot standartlari mazmun standartlarining mazmuniga mos bo'lgan, tegishli yosh fiziologik imkoniyatlari va aqliy faoliyat sohalaridan kelib chiqib singdirilgan.

Shu bois, amaliyot standartlarini har bir sinf kesimida yana alohida aniqlashtirib o'tirmaymiz.

JO'NIY



## MATEMATIKA FANI BO'YICHA FANLAR KESIMIDA ANIQLASHTIRILGAN TA'LIM STANDARTLARI

### I SINF UCHUN MATEMATIKA FANIDAN TA'LIM STANDARTLARI

Matematika fanidan 1-sinf ta'lif standartlari matematik mazmun va amaliyot standartlaridan iborat.

#### MATEMATIK MAZMUN STANDARTLARI

1-sinfda matematik mazmun standartlari matematikaning:

- **Sonlar va amallar (SA);**
- **Geometriya va o'Ichashlar (GO');**
- **Ehtimollik va statistika (ES)**

bo'limlarini qamrab oladi.

Kelgusida ishlatalish qulay bo'lsin uchun 1-sinfda qamrab olingan bo'limlar nomi - avval sinfning tartib raqami, so'ng bo'limning ikki bosh harfi bilan kodlanadi. Standartlar kodida esa avval sinf tartib raqami, song bo'lim nomi va oxirida standart tartib raqami keltirladi. Masalan, 1.SA.3 kod - birinchi sinfning "Sonlar va amallar" bo'limi bo'yicha 3- standartini bildiradi.

Muayyan sinfga kiritilgan standartlar o'z navbatida sinflar kesimida yanada aniqlashtiriladi. Ular quyida kichik lotin harflari bilan keltirilmoqda.

1-sinf o'quvchilari ta'lif jarayoni yakunida matematika fanidan quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

Kodi	1-SINF
<b>1. SA.</b>	<b>SONLAR VA AMALLAR</b>
1. SA.1	a) 0 dan 100 gacha bo'lgan natural sonlarni o'qish, yozsh, to'g'ri va teskari tartibda sanash, taqqoslash, tartibga solish, modellarda ko'rsatib berish; b) 0 dan 100 gacha natural sonlar ketma-ketligini tarkib topish qonuniyatini aniqlash va berilgan yoki tanlangan qonuniyat asosida ketma-ketlikni tuzish; c) 20 dan kichik biror sondan boshlab 20 gacha sanashni qo'shish va ayirish bilan bog'lash (masalan, 2 ni qo'shish uchun 2 ta qo'shib sanash); d) o'ngacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish ko'nikmalaridan foydalanib, 20 gacha bo'lgan sonlar ishtirokida qo'shish va ayirish amallarini bajarish. Masalan, o'nga to'ldirish: $8 + 6 = 8 + 2 + 4 = 10 + 4 = 14$ ; e) sonini o'n soni hosil bo'ladigan sonlarga ajratish: $13 - 4 = 13 - 3 - 1 = 10 - 1 = 9$ ; f) qo'shish va ayirish o'tasidagi munosabatdan foydalanish: $8 + 4 = 12$ ekanini bilgan holda, $12 - 8 = 4$ bo'lishini ham bilish; g) teng kuchli, ammo osonroq qo'shiladigan yig'indilarni tuzish: 6 + 7 ni hisoblash uchun quyidagicha yo'l tutish $6 + 6 + 1 = 12 + 1 = 13$ kabi usullardan foydalanish. h) 120 dan kichik biror sondan boshlab 120 gacha sanash. Ushbu oraliqda raqamlarni o'qish va yozish hamda yozma raqamlarda jismlar sonini ifodalash.



	<p>i) ikki xonali sonning ikkita raqami o'nlik va birlik miqdorlarini ifodalashini tushunish. Quyidagi alohida holatlarni tushunish:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- 10 ni "o'n" deb nomlanuvchi o'nta birlikdan iborat to'plam deb faraz qilish.</li><li>- 11 dan 19 gacha bo'lgan sonlar bitta o'nlik va bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz yoki to'qqiz birlik sonlaridan iborat deb tushuish;</li><li>- 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90 sonlari bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz yoki to'qqizta o'nlik sonini (va 0 ta birlik sonini) anglatishini bilish.</li></ul> <p>j) taqqoslash natijalarini &gt;, = va &lt; belgilari bilan qayd etib, o'nlik va birlik raqamlar ma'nolariga asoslangan holda ikkita ikki xonali sonni taqqoslash.</p>
<b>1. SA.2</b>	<p>a) 100 ichida qo'shish, ayirish amallarining tarkibiy qismlarini aniqlash, nomlash hamda qo'shish va ayirish jadvallaridan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda bu amallarni og'zaki va yozma bajarish;</p> <p>b) qo'shish va ayirish amallari mohiyatini ochuvchi sodda masalalarni yechish, masaladagi vaziyatga oid ifodani, jumladan, noma'lumlarni o'z ichiga olgan ifodani aniqlash va tuzish;</p> <p>c) Barcha holatlarda noma'lum sonlar ishtirokida qo'shish, olish, birlashtirish, ajratish, taqqoslash bilan bog'liq matnli masalalarni yechish uchun 20 gacha bo'lgan sonlar ishtirokida qo'shish va ayirish amallaridan foydalanish. Matnli masalani ifodalash uchun jismlar, rasmlar va noma'lum son ishtirokidagi tengliklardan foydalanish;</p> <p>d) Yig'indisi 20 ga teng yoki undan kamroq bo'ladigan uchta butun sonni qo'shish talab qilinadigan matnli masalalarni yechish va masalani ifodalash uchun jismlar, rasmlar hamda noma'lum son ishtirokidagi tenglamalardan foydalanish;</p> <p>e) Tenglik belgisining ma'nosini tushunish hamda qo'shish va ayirish amallari ishtirokidagi tengliklar to'g'ri yoki noto'g'rilib yoxligini aniqlash. Masalan, quyidagi tengliklardan qaysi biri to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekanligini aniqlash: <math>6 = 6, \quad 7 = 8 - 1, \quad 5 + 2 = 2 + 5, \quad 4 + 1 = 5 + 2;</math></p> <p>f) Uchta butun son ishtirokidagi qo'shish va ayirish amallari yordamida tuzilgan tenglikdan noma'lum butun sonni aniqlash. Masalan, quyidagi tengliklarning har birida tenglik to'g'ri bo'lishini ta'minlaydigan noma'lum sonni aniqlash <math>8 + ? = 11, \quad 5 = ? - 3, \quad 6 + 6 = ?.</math></p>
<b>1. SA.3.</b>	<p>a) Amallar xossalardan sonlarni qo'shish va ayirishda usullar sifatida foydalanish. Masalan: agar <math>8 + 3 = 11</math> ekan ma'lum bo'lsa, u holda <math>3 + 8 = 11</math> ekan ham ma'lum (qo'shishning kommutativlik xossasi.) <math>2 + 6 + 4</math> ning yig'indisini topmoqchi bo'lsak, keyingi ikki sonni qo'shib, o'nni hosil qilish mumkin, natijada <math>2 + 6 + 4 = 2 + 10 = 12</math> (qo'shishning assotsiativlik xossasi);</p> <p>b) Ayirishni noma'lum qo'shiluvchi ishtirokidagi masala sifatida tushunish. Masalan, 8 ga qo'shilganda yig'indi 10 bo'ladigan sonni topish uchun <math>10 - 8</math> ni, ya'ni ayirish amalini bajarish;</p> <p>c) Aniq modellar yoki rasmlar va xonali sonlar, amallar xossalari va /yoki qo'shish va ayirish amallari o'rtaqidagi munosabatlarga asoslangan usullardan foydalangan holda 100 gacha bo'lgan sonlar ishtirokida qo'shish amallarini bajarish, jumladan ikki xonali son bilan bir xonali</p>



	<p>sonni qo'shish va ikki xonali son bilan 10 ning ko'paytmasini qo'shish. Usullarni yozma ifodalash va foydalanilgan asoslashni tushuntirish. Ikki xonali sonlarni qo'shishda o'nliklar o'nliklarga, birliklar birliklarga qo'shiladi va ayrim hollarda bitta o'nlikni hosil qilish lozim bo'ladi.</p> <p>d) Ikki xonali son berilgan, hisoblab o'tirmasdan yoddan undan 10 ta ko'p yoki 10 ta kam sonni aniqlash va fikrni asoslash;</p> <p>e) Aniq modellar yoki rasmlar va o'nli sonlar, amallar xossalari va /yoki qo'shish va ayirish amallari o'rtaсидagi munosabatlarga asoslangan usullardan foydalanish.</p>
<b>1. SA4.</b>	<p>a) Turli obektlar o'lchamlarini, masofalarni chamalash, real obektlarni geometrik shakllar modellari bilan bog'lash;</p> <p>b) 2 ta arifmetik amalli (qavslri yoki qavssiz) sonli ifodaning qiymatini hisoblash.</p>
<b>1. GO'</b>	<b>GEOMETRIYA VA O'LCHASHLAR</b>
<b>1. GO'.1</b>	<p>a) Nuqta, yassi (siniq chiziq, egri chiziq, kesma, burchak, aylana, doira, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat) va fazoviy (kub, shar) shakllarni tasavvur qilsh, tanish, nomlash, solishtirish va tasvirlash;</p> <p>b) Belgilovchi xossalalar (masalan, uchburchaklar yoki uch tomonli) va belgilovchi xususiyatga ega bo'lmagan xossalalar (masalan, rangi, yo'nalishi, umumiy o'lchami) o'rtaсидagi farqlarni ajratish. Belgilovchi xossalalar asosida shakllarni yasash va chizish;</p> <p>c) Murakkab shaklni yasash va murakkab shakldan yangi shakllar yasash uchun yassi shakllarni (to'rtburchaklar, kvadratlar, trapetsiyalar, uchburchaklar, yarim doiralalar va chorak doiralalar) yoki uch o'lchamli shakllarni (kub, prizma, konus va silindrlar) yasash.</p> <p>d) Doiralarni va to'rtburchaklarni ikki va to'rtta teng bo'laklarga bo'lish. Bo'laklarni "yarmi", "to'rtadan biri" va "choragi" so'zlaridan foydalanib tasvirlash. Butun jismni yarim bo'laklarning ikkitasi yoki chorak bo'laklarning to'rtasi sifatida tasvirlash. Bu misollar asosida bir necha teng bo'laklarga bo'lish kichik bo'laklarni hosil qilishini tushunish;</p>
<b>1. GO'.7</b>	<p>a) uzunlik, masofa, massa va sig'im o'lchov birliklarini bilish, o'qish, yozish, ular orasidagi munosabatlardan foydalanib kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan (2 qadamli) masalalarni arifmetik usulda yechish;</p> <p>b) O'lchamlari ma'lum bo'lgan yassi geometrik shakllarni (kesma, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat) chizg'ichdan foydalanib yasash, ularni qog'oz, sim, plastilin va h.k.lar yordamida modellashtirish;</p> <p>c) Uchta jismni uzunligiga ko'ra tartib bilan joylashtirish. Uchinchi jismdan foydalangan holda ikkita jism uzunliklarini bilvosita taqqoslash.</p> <p>a) Muayyan uzunlikdagi tasma (uzunlik birligi)ni bir nechta nusxasini ketma-ket qo'yish orqali hosil bo'lgan katta tasma uzunligini butun son sifatida ifodalash.</p> <p>d) Vaqtini aytish va yozib qo'yish.</p> <p>e) Oddiy va elektron soatlardan foydalangan holda vaqtning butun va yarim soat oraliqlarini aytish va yozish.</p>
<b>1. ES.</b>	<b>EHTIMOLLIK VA STATISTIKA</b>
<b>1. ES.1</b>	<p>a) murakkab bo'lmagan jadvallar ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qish, tayyor jadvallarni to'ldirish;</p> <p>b) ma'lumotlarni to'plash, taqdim etish va sharhlash.</p> <p>c) Berilgan obektlarni xossasiga qarab to'plamga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlash va obektlar to'plamidan berilgan xossaga ega bo'lgan bir yoki bir nechtasini ajratish;</p>



- d) Berilgan narsalarni xossalasiga ko'ra bir yoki bir nechta to'plamga ajratish, narsalar juftliklarini tuzib, to'plamlarni soni bo'yicha taqqoslash, ifodalash va tartibga solish.

## II SINF UCHUN MATEMATIKA FANIDAN TA'LIM STANDARTLARI

Matematika fanidan 2- sınıf ta'lif standartları matematik mazmun va amaliyot standartlarından iborat.

### MATEMATIK MAZMUN STANDARTLARI

2- sınıfda matematik mazmun standartları matematikaning:

- **Sonlar va amallar (SA);**
- **Geometriya va o'lchashlar (GO');**
- **Ehtimollik va statistika (ES)**

bo'limlarini qamrab oladi.

Kelgusida ishlatish qulay bo'lsin uchun 2-sinfda qamrab olingan bo'limlar nomi - avval sinfning tartib raqami, so'ng bo'limning ikki bosh harfi bilan kodlanadi. Standartlar kodida esa avval sınıf tartib raqami, song bo'lim nomi va oxirida standart tartib raqami keltirladi. Masalan, 2.SA.3 kod - birinchi sinfning "Sonlar va amallar" bo'limi bo'yicha 3- standartini bildiradi.

Muayyan sinfga kiritilgan standartlar o'z navbatida sinflar kesimida yanada aniqlashtiriladi. Ular quyida kichik lotin harflari bilan keltirilmoqda.

2-sinf o'quvchilari ta'lif jarayoni yakunida matematika fanidan quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

Kodi	2-SINF
<b>2. SA.</b>	<b>SONLAR VA AMALLAR</b>
<b>2. SA.1</b>	<p>a) Uch xonali sonning uchta raqami yuzlik, o'nlik va birliklar sonini ifodalashini tasavvur qilish. Masalan, 706 soni 7 ta yuzlik, 0 ta o'nlik va 6 ta birlik sonlardan iborat. Quyidagilarni alohida holatlar sifatida tushunish:</p> <p>b) 100 sonini "yuz" deb ataladigan o'nta o'nliklardan iborat to'plam sifatida faraz qilish.</p> <p>c) 100, 200, 300, 400, 500, 600, 700, 800, 900 sonlariga bitta, ikkita, uchta, to'rtta, beshta, oltita, yetta, sakkizta yoki to'qqizta yuzliklardan iborat (bu yerda 0 ta o'nlik va 0 ta birlik borligini tushunish).</p> <p>d) 1000 gacha bo'lgan sonlarni sanash; 5 dan, 10 dan va 100 dan o'tkazib sanash.</p> <p>e) O'nlik sanoq sistemasidagi raqamlar, sonlar nomlari va kengaytirilgan shakldan foydalanib, 1000 gacha bo'lgan sonlarni o'qish va yozish.</p> <p>f) Taqqoslash natijalarini ifodalash uchun &gt;, = va &lt; belgilardan foydalanib, yuzlik, o'nlik va birliklarning ma'nolariga asoslangan holda ikkita uch xonali sonni taqqoslash.</p> <p>g) 0 dan 1000 gacha bo'lgan butun sonlarni o'qish, yozish, to'g'ri va teskari tartibda sanash, taqqoslash, tartibga solish, modellarda ko'rsatib berish;</p> <p>h) 0 dan 1000 gacha butun sonlar ketma-ketligini tarkib topish qonuniyatini aniqlash va berilgan yoki tanlangan qonuniyat asosida ketma-ketlikni tuzishi, juft va toq sonlarni ajratish;</p>



	<p>i) murakkab bo'lmagan kasr son sonning (ikkidan bir, uchdan bir, to'rtadan bir, beshdan bir, oltidan bir, sakkizdan bir va o'ndan bir) ulushi, to'plamning qismi ekanligini tushunish, so'zlar yoki sonlar yordamida tasvirlash;</p>
<b>2. SA.2</b>	<p>a) Hayotiy vaziyatlarda 100 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish amallaridan foydalanib qo'shish, olib tashlash, birlashtirish, ajratish, taqqoslash,</p> <p>b) noma'lum son qatnashgan tenglama yordamida yechiladigan bir va ikki qadamli matnli masalalarни yechish. Xususan, masalani ifodalash uchun rasmlar va noma'lum son ishtirokidagi munosabatlardan foydalanish;</p> <p>c) sonni yig'indiga qo'shish va yig'indini songa qo'shishga oid, sonni orttirish (kamaytirish)ga va yig'indini topishga oid, yig'indini va qoldiqni, ayirmani va yig'indini (arifmetik amallar yordamida va ifoda tuzish bilan) topishga oid masalalarни yechish;</p> <p>d) ko'paytirish amalida qatnashgan noma'lum tarkibiy qismni aniqlash va ko'paytirish bir xil qo'shiluvchilar yig'indisini topish ekanligini anglash, ko'paytirishning asosiy xossasini hisoblashlarda qo'llash;</p> <p>e) miqdorlar (narx-navo, massa, vaqt, uzunlik, yo'l, yuz)ni topishga (hisoblashga) oid sodda masalalar va ular orasidagi bog'lanishlarni qo'llab kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarни arifmetik usulda yechish;</p>
<b>2. SA.3.</b>	<p>a) Og'zaki hisoblash usullardan foydalanib, 20 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirishni og'zaki hisoblash. Ikkinci sinf oxiriga kelib, ikkita bir xonali sonlarning barcha yig'indilarini yoddan bilish.</p> <p>b) Juftliklarga birlashtirish yoki ikkitalab sanash yo'li bilan 20 ta narsadan iborat to'plamdagи narsalar soni toq va juft ekanligini aniqlash. Juft sonni ikkita teng qo'shiluvchining yig'indisi sifatida ifodalash uchun tegishli tenglikni yozish.</p> <p>c) 5 tagacha qator va 5 tagacha ustuni bo'lgan to'rburchak shaklida turgan narsalarning umumiyl sonini topish uchun qo'shish amalida foydalanish. Sonni tegishli teng qo'shiluvchilarning yig'indisi sifatida ifodalash uchun tenglikni yozish.</p> <p>d) Xonali sonlar, amallar xossalari va/yoki qo'shish va ayirish o'rtasidagi munosabatga asoslangan usullardan foydalanib, 100 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish amallarini og'zaki bajarish.</p> <p>e) Xonali sonlar, amallar xossalariiga asoslangan usullardan foydalanib, to'rttagacha ikki xonali sonlarni qo'shish;</p> <p>f) Aniq modellar yoki rasmlar va xonali sonlar, amallar xossalari va / yoki qo'shish va ayirish o'rtasidagi munosabatga asoslangan usullardan foydalanib, 1000 gacha bo'lgan sonlarni yozma ravishda qo'shish va ayirish. Uch xonali sonlarni qo'shish va ayirishda yuzlar yuzlarga, o'nlar o'nlarga, birliklar birliklarga qo'shiladi yoki ayrıladı va ba'zan o'nlik yoki yuzlarni birlashtirish yoki ajratish muhimligini tushunish;</p> <p>g) 100–900 oralig'ida berilgan songa 10 yoki 100 ni og'zaki qo'shish va 100–900 oralig'ida berilgan sondan 10 yoki 100 ni og'zaki ayirish.</p> <p>h) O'nli sonlar, amallar xossalardan foydalanib, qo'shish va ayirish usullarini tushuntirib berish.</p> <p>i) Bir xil birlikda berilgan uzunliklarni o'z ichiga olgan matnli masalalarni yechish uchun 100 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish amallaridan foydalanish. Masalan, masalani taqdim etish uchun rasmlar (chizg'ichlar rasmlari kabi) va noma'lum son belgisi bo'lgan tengliklardan foydalanish.</p>



	j) 0, 1, 2, ... sonlarni sonlar o'qida orasidagi oraliqlar teng bo'lgan nuqtalar sifatida tasvirlash va sonlar o'qida 100 gacha bo'lgan sonlar yig'indilari va farqlarini tasvirlash. k) sonlarni qo'shish va ayirish jadvallaridan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda 1000 ichida sonlar ustida qo'shish va ayirish.
<b>2. SA4.</b>	a) natijasi 1000 ichida bo'lgan sonli va harfli ifodaning (qavslı, qavssız) qiymatini og'zaki va yozma hisoblash, obyektlarni xossalari bo'yicha tartiblash, sodda kombinatsiyalarini tuzish.
<b>2. GO'</b>	<b>GEOMETRIYA VA O'LCHASHLAR</b>
<b>2. GO'.1</b>	a) Yassi va fazoviy geometrik shakllarga doir asosiy tushunchalar, ularning asosiy xossalarni amaliy mazmundagi masalalar yechishda qo'llay olish, chizma, model va real dunyodagi geometrik shakllarni taniy olish; b) Berilgan burchaklar soni yoki berilgan teng tomonlar soni kabi maxsus xossalarga ega shakllarni aniqlash va chizish. Uchburchaklar, to'rtburchaklar, beshburchaklar, oltiburchaklar va kublarni aniqlash. c) To'g'ri to'rtburchakni bir xil o'lchamdagи kvadratlar qatoriga va ustunlariga ajratish va ularning jami sonini sanab chiqish. d) Doiralarni va to'g'ri to'rtburchaklarni ikkita, uchta va to'rtta o'zaro teng qismlarga ajratish. Qismlarni yarim, uchdan bir, to'rtdan bir va boshqa so'zlardan foydalanim nomlash. Teng qismlarga ajraladigan shakllar bir xil shaklga ega bo'lishi shart emasligini tushunish. e) to'g'ri to'rtburchak (kvadrat) ning yuzini hisoblash, atrof–borliqdagi sodda obyektlarni geometrik shakllar modellari bilan bog'lash, asosiy kattaliklarini o'lhash; f) aylana va doiraning elementlari (markazi, radiusi, diametri)ni ayish, sirkuldan foydalanim ushbu shakllarni yasash.
<b>2. GO'.7</b>	a) Santimetr va metr birliklaridan foydalanim, uzunliklarni o'lhash. b) Standart uzunlik birligida uzunlik farqini ifodalash orqali bir buyumning ikkinchisidan qanchalik uzunligini aniqlash uchun o'lhash. c) Oddiy va elektron soatlarga qarab, eng yaqin besh daqiqaga yaxlitlab, vaqtini aytish va yozish. d) Qog'oz pul va tangalar ishtirokida matnli masalalarni yechish. Masalan: agar sizda 2 ta 500 so'mlik va 3 ta 100 so'mlik tanga pullar bo'lsa, sizda necha so'm bor?
<b>2. GO'.8</b>	a) Chizg'ich, o'lchagich tayoqcha, o'lchagich sterjen va o'lchagich tasmalar kabi shartli o'lhash asboblardan foydalanim, buyum uzunligini o'lhash. b) Turli uzunlikdagi shartli o'lhash asboblardan foydalanim, buyum uzunligini o'lhash. Ikkala o'lhash natijalarini tanlangan shartli o'lchov birliklarning uzunligiga qanday bog'liqligini aniqlash.
<b>2. ES.</b>	<b>EHTIMOLLIK VA STATISTIKA</b>
<b>2. ES.1</b>	a) Bir nechta buyumlarning uzunliklarini eng yaqin butungacha o'lhash orqali yoki bir xil buyumni qayta-qayta o'lhash orqali aniqlash. Gorizontal shkalada sonlarni belgilab, son o'qida o'lhash natijalarini ko'rsatish. b) to'rttagacha sondan iborat bo'lgan ma'lumotlar qatorini tasvirlash uchun nuqtali va ustunli diagrammalarini (bir hil o'lchov birliklarda) chizish. Ustunli diagrammada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanim, qo'shish, ayirish va taqqoslashga doir sodda masalalarni yechish.

### III SINF UCHUN MATEMATIKA FANIDAN TA'LIM STANDARTLARI



Matematika fanidan 3- sinf ta’lim standartlari matematik mazmun va amaliyot standartlaridan iborat.

## MATEMATIK MAZMUN STANDARTLARI

3- sinfda matematik mazmun standartlari matematikaning:

- **Sonlar va amallar (SA);**
- **Geometriya va o‘lchashlar (GO’);**
- **Ehtimollik va statistika (ES)**

bo‘limlarini qamrab oladi.

Kelgusida ishlatish qulay bo‘lsin uchun 3-sinfda qamrab olingan bo‘limlar nomi - avval sinfning tartib raqami, so‘ng bo‘limning ikki bosh harfi bilan kodlanadi. Standartlar kodida esa avval sinf tartib raqami, song bo‘lim nomi va oxirida standart tartib raqami keltirladi. Masalan, 3.SA.3 kod - birinchi sinfning “Sonlar va amallar” bo‘limi bo‘yicha 3- standartini bildiradi.

Muayyan sinfga kiritilgan standartlar o‘z navbatida sinflar kesimida yanada aniqlashtiriladi. Ular quyida kichik lotin harflari bilan keltirilmoqda.

3-sinf o‘quvchilari ta’lim jarayoni yakunida matematika fanidan quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim:

Kodi	3-SINF
<b>3. SA.</b>	<b>SONLAR VA AMALLAR</b>
<b>3. SA.1</b>	<p>a) 0 dan 10 000 gacha bo‘lgan sonlarni o‘qish, yozish, to‘g‘ri va teskari tartibda sanash, taqqoslash, tartibga solish, modellarda ko‘rsatish;</p> <p>b) 0 dan 10 000 gacha sonlar ketma-ketligini tarkib topish qonuniyatini aniqlash va berilgan yoki tanlangan qonuniyat asosida ketma-ketlikni tuzish;</p> <p>c) rim raqamlarini o‘qish, yozish, tanish va foydalanish;</p> <p>d) 1 / b ko‘rinishdagi kasrni - butunni b ta teng qismiga bo‘linganda, bitta qism hosil bo‘ladigan miqdor sifatida tushunish. a / b kasrni har biri 1 / b miqdordagi a ta qismlar yordamida hosil bo‘ladigan miqdor sifatida tushunish.</p> <p>e) Kasrni sonlar o‘qidagi son sifatida tushunish va chizmada tasvirlash.</p> <p>f) 0 dan 1 gacha oraliqni bir butun deb olib, uni b ta teng qismlarga bo‘lish orqali 1/b kasrni sonlar o‘qi chizmasida tasvirlash. Har bir qism 1 / b o‘lchamga ega ekanligi va 0 dan boshlangan qismning so‘nggi nuqtasi sonlar o‘qida 1 / b soniga mos ekanligini tushunish.</p> <p>g) a / b kasrni sonlar o‘qida 0 dan boshlab 1/b uzunliklarni a marta qo‘yish orqali tasvirlash. Hosil bo‘lgan kesmaning uzunligi a / b ga teng ekanligini va uning oxirgi nuqtasi sonlar o‘qidagi a / b soniga mos ekanligini tushunish.</p> <p>h) Alovida holatlarda kasrlarning tengligini tushuntirish va ularning o‘lchamlari haqida fikr yuritib, kasrlarni taqqoslash.</p> <p>i) agar ikkita kasr bir xil o‘lchamda bo‘lsa yoki sonlar o‘qida bitta nuqtaga mos bo‘lsa, ular teng bo‘lishini tushunish.</p> <p>j) sodda hollarda teng kasrlarni aniqlash va ularni hosil qilish, masalan, <math>1/2 = 2/4</math>, <math>4/6 = 2/3</math>. Kasrlarning ko‘rgazmali modelidan foydalanib, kasrlar nima uchun tengligini tushunish.</p> <p>k) sonlarni kasrlar sifatida ifodalash va sonlarga teng bo‘lgan kasrlarni bilish. Masalan: <math>3 \text{ ni } 3 = 3/1</math> shaklida ifodalash, <math>6/1 = 6</math> ekanini tushunish,</p>



	<p>4/4 va 1 ni sonlar o'qi chizmasida ayni bitta nuqtaga joylashtirish.</p> <p>l) bir xil suratga yoki bir xil maxrajga ega ikki kasrni ularning qiymatlari haqida fikr yuritish orqali taqqoslash. Taqqoslashlar faqatgina ikki kasr bir xil sonni nazarda tutgandagina teng bo'lishini tushunish. Taqqoslash natijalarini &gt;, = yoki &lt; belgilari bilan yozish va kasrlarning ko'rgazmali modelidan foydalanib xulosalarni asoslash.</p> <p>m) sodda (maxraji 2, 3, 4, 5, 6, 8, 10, 12 bo'lgan) kasr son sonning ulushi, to'plamning qismi ekanligini, aralash sonni tushunish, kasr sonni so'zlar, sonlar va modellar yordamida tasvirlash;</p> <p>n) bir xil maxrajli sodda kasrlarni taqqoslash, tartiblash va ular ustida qo'shish va ayirish amallarini bajarish;</p>
<b>3. SA.2</b>	<p>a) Sonlarning ko'paytmasini tushunish, misol uchun <math>5 \times 7</math> ko'paytmani - 5 ta to'plamning har birida 7 tadan narsa bo'lgan holatda narsalarning umumiy soni sifatida sharhlash. Masalan, narsalarning umumiy soni <math>5 \times 7</math> sifatida ifodalanishi mumkin bo'lgan hayotiy vaziyatni qarash.</p> <p>b) Bo'linma butun son bo'lgan vaziyatni talqin qilish, misol uchun <math>56 : 8</math> ni - 56 ta narsadan tashkil topgan to'plamni teng 8 ta guruhga bo'lganda har bir guruhdagi narsalar soni sifatida yoki shu to'plamni har biri 8 ta narsadan iborat teng guruhlarga bo'lganda guruhlar soni sifatida sharhlash. Masalan, guruhlarning soni <math>56 : 8</math> sifatida ifodalanishi mumkin bo'lgan hayotiy vaziyatni qarash.</p> <p>c) elementlari soni teng guruhlar, tuzilmalar va o'Ichov miqdorlarini o'z ichiga olgan vaziyatlarga oid matnli masalalarni yechish uchun 100 gacha bo'lgan sonlar bilan ko'paytirish va bo'lish amallaridan foydalanish, misol uchun, masalani ifodalash uchun rasmlar va noma'lum son belgisi bo'lgan tenglamalardan foydalanish;</p> <p>d) uchta son, ko'paytirish yoki bo'lish amali qatnashgan tenglikda noma'lum sonni aniqlash. Masalan, <math>8 \times ? = 48</math>; <math>5 = ? \div 3</math>; <math>6 \times 6 = ?</math> Tengliklarning har birida tenglikni to'g'ri bo'lishini ta'minlaydigan noma'lum sonni aniqlash;</p> <p>e) sonlarni eng yaqin 10 yoki 100 gacha yaxlitlash uchun o'nli sonlar tushunchasidan foydalanish;</p> <p>f) o'nli sonlar, amallar xossalari va/yoki qo'shish va ayirish o'rta sidagi munosabatlarga asoslangan usullar va algoritmlardan foydalanib, 1000 gacha bo'lgan sonlar bilan qo'shish va ayirish amallarini og'zaki bajarish.</p> <p>g) o'nli sonlar va amallar xossalariiga asoslangan usullardan foydalanib, bir xonali butun sonlarni <math>10 - 90</math> oraliqdagi 10 sonining ko'paytuvchilariga ko'paytirish (masalan, <math>9 \times 80, 5 \times 60</math>).</p> <p>h) tenglamalarni tanlash usuli bilan, berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi o'zaro munosabat asosida yechish;</p> <p>i) miqdorlar (narx-navo, massa, vaqt, uzunlik, yo'l, yuz, tezlik) orasidagi munosabatlarni qo'llab, kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan (2-3 qadamli) masalalarni arifmetik usulda yechish;</p>
<b>3. SA3.</b>	<p>a) Amallar xossalarni ko'paytirish va bo'lish usullari sifatida qo'llash. Misollar:</p> <p>b) Agar <math>6 \times 4 = 24</math> ekani ma'lum bo'lsa, u holda <math>4 \times 6 = 24</math> ekani ham ma'lum. (ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi);</p> <p>c) <math>3 \times 5 \times 2</math> ni avval <math>3 \times 5 = 15</math> ekanligini topib, so'ngra <math>15 \times 2 = 30</math> ni hisoblash orqali topsa bo'ladi, yoki avval <math>5 \times 2 = 10</math> ekanligini topib, so'ngra <math>3 \times 10 = 30</math> ni hisoblash orqali topsa bo'ladi (ko'paytirishning guruhash xossasi);</p> <p>d) <math>8 \times 5 = 40</math> va <math>8 \times 2 = 16</math> ekanini bilgan holda, <math>8 \times 7</math> ni <math>8 \times (5 + 2) = (8 \times</math></p>



	<p>5) + (8 × 2) = 40 + 16 = 56 ko'rinishida topish (ko'paytirishning qo'shishga nisbatan taqimot xossasi).</p> <p>e) Bo'lish amalini nomalum ko'paytuvchini topish masalasi sifatida tushunish. Masalan, 8 ga ko'paytirganda 32 hosil bo'ladigan sonni topish orqali <math>32 : 8 = 4</math> ekanligini anglash;</p> <p>f) Yuzgacha bo'lgan sonlarni ko'paytirish va bo'lish;</p> <p>g) Ko'paytirish va bo'lish o'rtasidagi munosabatlar yoki amallar xossalari kabi usullardan foydalanib 100 gacha bo'lgan sonlar bilan ko'paytirish va bo'lish amallarini og'zaki bajarish (masalan, <math>8 \times 5 = 40</math> ekanini bilgan holda, <math>40 \div 5 = 8</math> ni topish). Uchinchi sinf oxiriga kelib, ikkita bir xonali sonning barcha ko'paytmalarini yoddan bilish;</p> <p>h) sodda hollarda sonning bo'lувchilarini va karralilarini hamda sonning ko'paytuvchilarini aniqlash;</p>
<b>3. SA4.</b>	<p>a) To'rt amaldan foydalangan holda ikki qadamli matnli masalalarni yechish. Noma'lum miqdorni ifodalovchi harf ishtirokidagi tenglamalardan foydalanib, ushbu masalalarni ifodalash. Og'zaki hisoblash va baholash usullari, shu jumladan, yaxlitlash yordamida javoblarning to'g'ri ekanligini baholash.</p> <p>b) Arifmetik qonuniyatlarni aniqlash (shu jumladan, qo'shish jadvali yoki ko'paytirish jadvalidagi qonuniyatlar) va amallar xossalardan foydalanib, ularni tushuntirish. Masalan, bir sonni 4 ga ko'paytirilganda natija doim juft bo'lishiga e'tibor berish va nima uchun 4 ga ko'paytirilgan sonni ikkita teng qo'shiluvchiga ajratish mumkinligini tushuntirish.</p> <p>c) natijasi 10 000 ichida bo'lgan sonli va harfli ifodaning (qavslı, qavssız) qiymatini og'zaki va yozma hisoblash, yechimlarni kalkulyator yordamida tekshirish;</p> <p>d) sonlarni qo'shish va ayirish jadvallaridan, arifmetik amallarning bajarish algoritmlaridan foydalangan holda 10 000 ichida nomanifiy butun sonlar ustida qo'shish va ayirishning hollarini bajarish;</p> <p>e) 2-3 arifmetik amalli (qavslı, qavssız) sonli ifodaning qiymatini hisoblash;</p>
<b>3. GO'</b>	<b>GEOMETRIYA VA O'LCHASHLAR</b>
<b>3. GO'.1</b>	<p>a) Turli yassi shakllarning (masalan, romblar, to'g'ri to'rburchaklar va boshqalar) ayrim xossalari (masalan, to'rtta tomonga ega bo'lishi) bir xil bo'lishi mumkinligini va bir xil xossalarni shakllarning kattaroq toifalarni belgilashi mumkinligini tushunish (masalan, to'rburchaklar). To'g'ri to'rburchaklarga misollar sifatida romblar, to'g'ri to'rburchaklar va kvadratlarni keltirish va ushbu toifalardan birontasiga tegishli bo'limgan to'rburchaklarga misollar chizish.</p> <p>b) Shakllarni teng yuzga ega qismlarga bo'lish. Har bir qismni surati 1 ga teng bo'lgan kasr sifatida ifodalash. Masalan, shaklni 4 ta teng yuzli qismga bo'lish va har bir qismning yuzi shakl yuzining <math>1/4</math> qismi sifatida ifodalash.</p> <p>c) o'lchamlari ma'lum bo'lgan yassi geometrik shakllarni (kesma, nur, to'g'ri chiziq, doira) chizg'ich, sirkul yordamida kataklı qog'ozga chizish, ularni qog'oz, sim, plastilin va h.k. lar yordamida modellashtirish, kesma va doirani teng bo'laklarga bo'lish;</p> <p>d) parallel va perpendikulyar to'g'ri chiziqlar haqida tasavvurga ega bo'lish.</p>
<b>3. GO'.2</b>	<p>a) Yuzni yassi shakllarning xossasi sifatida bilish va yuzni o'lchash tushunchalarini anglash;</p> <p>b) "Birlik kvadrat", deb nomlanadigan uzunligi 1 birlikka teng bo'lgan tomonga ega bo'lgan kvadrat "bir kvadrat birlik" deb ataladi va undan yuzni o'lchash uchun foydalanish mumkinligini anglash.</p>



	<ul style="list-style-type: none"><li>c) n ta birlik kvadrat bilan bo'shliq qoldirmasdan va ustma-ust tushmaydigan qilib qoplanadigan yassi shakl yuzi n kvadrat birlikka tengligini anglash;</li><li>d) Birlik kvadratlar (kvadrat sm, kvadrat metr va boshqa birliklar) yordamida yuzlarni o'lchash;</li><li>e) Yuz bilan ko'paytirish va qo'shish amallari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;</li><li>f) Sonlar bilan ifodalangan tomon uzunliklariga ega to'g'ri to'rtburchakni qismlarga bo'lish orqali uning yuzini aniqlash hamda uning yuzi tomon uzunliklarining ko'paytmasiga tengligini ko'rsatish;</li><li>g) Hayotiy va matematik masalalarni yechishda sonlar bilan ifodalangan tomon uzunliklariga ega to'g'ri to'rtburchaklarning yuzini topish uchun tomonlar uzunliklarini ko'paytirish va sonlar ko'paytmasini matematik asoslashda to'g'ri to'rtburchak yuzi sifatida ifodalash;</li><li>h) Muayyan holatda sonlar bilan ifodalangan tomonlar uzunliklari a va b+c bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yuzi a × b va a × c ning yig'indisiga tengligini ko'rsatish uchun qismlarga ajratish usulidan foydalanish, ko'paytirish va qo'shish amallariga nisbatan distributivlik xossasini matematik asoslash va namoyon etish uchun yuz modellaridan foydalanish.</li><li>i) Yuzning additivligini tushunish. Hayotiy masalalarni yechish uchun ushbu usulni qo'llab, tegishli shakllarning yuzini ularni ustma-ust tushmaydigan to'g'ri to'rtburchaklarga bo'lish va ustma-ust tushmaydigan qismlar yuzlarini qo'shish orqali aniqlash;</li><li>j) Geometrik o'lchashlar: perimetri yassi shakllarning xossasi sifatida olish hamda uzunlik va yuz o'lchamlarini farqlash;</li><li>k) Ko'pburchaklarning perimetrlari ishtirokidagi hayotiy va matematik masalalarni yechish. Jumladan, tomonlar uzunliklari berilganda perimetri topish, tomonlarning noma'lum uzunligini topish va bir xil perimetrga va turli yuzlarga ega yoki bir xil yuzga va turli perimetrlarga ega to'g'ri to'rtburchaklarni namoyish etish;</li><li>l) berilgan gradusli burchaklarni transportir yordamida o'lchash, shakllarni burchak simmetriyasi asosida burish;</li><li>m) real obektlarni geometrik shakllar modellari bilan bog'lay olish.</li></ul>
<b>3. GO'.7</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>a) Vaqtini eng yaqin daqiqagacha yaxlitlab aytish va yozish hamda vaqt oraliqlarini daqiqalarda o'lchash. Daqiqalarda ifodalangan vaqt oraliqlarini qo'shish va ayirish bilan bog'liq matnli masalalarni (masalan, sonlar o'qida tasvirlash orqali) yechish,</li><li>b) Suyuqliklar hajmlarini va jismlarning vaznni gramm (g), kilogramm (kg) va litr (l) standart birliklardan foydalanib o'lchash va hisoblash. Bir xil birliklarda berilgan og'irliklar yoki hajmlar bilan bog'liq bir bosqichli matnli masalalarni yechish uchun qo'shish, ayirish, ko'paytirish yoki bo'lish, masalani ifodalash uchun (o'lchash shkalasi bo'lgan menzurka kabi) rasmlardan foydalanish orqali</li><li>c) yuz o'lchovi birliklari (kvadrat detsimetr - kv. dm yoki dm2, kv. m yoki m2) va ular orasidagi munosabatlarni tasavvur qilish.</li></ul>
<b>3. ES.</b>	<b>EHTIMOLLIK VA STATISTIKA</b>
<b>3. ES.1</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>a) Bir necha turdag'i ma'lumotlarni taqdim etish uchun masshtabi berilgan chiziqli va ustunli diagrammalarni yasash. Diagrammada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, "qancha ko'p?" va "qancha kam?" ko'rinishidagi bir va ikki qadamli masalalarni yechish. Masalan, diagramma chizzak, undagi har bir kvadrat 5 ta uy hayvonini ifodalashi mumkin.</li></ul>



	b) Bir o'Ichov birligining yarmi va to'rtdan biri belgilangan chizg'ich yordamida uzunliklarni o'lchab ma'lumotlar qatorini hosil qilish. Gorizontal shkala tegishli birliklarda – nomanfiy butun sonlar, yarimlar yoki choraklarda belgilab chiqilgan bo'lsa, diagramma yasash orqali ma'lumotlarni tasvirlash.
3. ES.4	a) sodda kombinatorika (to'plam elementlarini muayyan qoida asosida saralash imkoniyatlar sonini aniqlash) ga doir masalalarni yechish;

## IV SINF UCHUN MATEMATIKA FANIDAN TA'LIM STANDARTLARI

Matematika fanidan 4- sınıf ta'lim standartları matematik mazmun va amaliyat standartlarından iborat.

### MATEMATIK MAZMUN STANDARTLARI

4-sinfda matematik mazmun standartları matematikaning:

- **Sonlar va amallar (SA);**
- **Geometriya va o'Ichashlar (GO');**
- **Ehtimollik va statistika (ES)**

bo'limlarini qamrab oladi.

Kelgusida ishlatish qulay bo'lsin uchun 4-sinfda qamrab olingan bo'limlar nomi - avval sinfning tartib raqami, so'ng bo'limning ikki bosh harfi bilan kodlanadi. Standartlar kodida esa avval sınıf tartib raqami, song bo'lim nomi va oxirida standart tartib raqami keltirladi. Masalan, 3.SA.3 kod - birinchi sinfning "Sonlar va amallar" bo'limi bo'yicha 4- standartini bildiradi.

Muayyan sinfga kiritilgan standartlar o'z navbatida sinflar kesimida yanada aniqlashtiriladi. Ular quyida kichik lotin harflari bilan keltirilmoqda.

4-sinf o'quvchilari ta'lim jarayoni yakunida matematika fanidan quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

Kodi	4-SINF
<b>4. SA.</b>	<b>SONLAR VA AMALLAR</b>
4. SA.1	<p>a) 0 dan 1 000 000 gacha bo'lgan sonlarni o'qish, yozish, taqqoslash, tartibga solish, modellarda tasvirlash;</p> <p>b) O'nli sonda bir o'rindagi raqam o'zidan o'ng tomondagi o'rinda kelgan raqamdan o'n baravar katta sonni ifodalashini tushunish. Masalan, o'nli son va bo'lish tushunchalarini qo'llash orqali <math>700 : 70 = 10</math> bo'lishini bilish.</p> <p>c) O'nli tizimdagi raqamlar, sonlar nomlari va kengaytirilgan shakldan foydalanib ko'p xonali sonlarni o'qish va yozish. Taqqoslash natijalarini qayd etish uchun <math>&gt;</math>, <math>=</math> va <math>&lt;</math> belgilardan foydalanib, har bir o'rindagi raqamlar ma'nosiga asoslangan holda ikkita ko'p xonali sonni taqqoslash.</p> <p>d) Ko'p xonali sonlarni har qanday xonagacha yaxlitlash uchun o'nli sonlar tushunchasidan foydalanish.</p> <p>e) Kasrlarning ko'rgazmali modellaridan foydalangan holda qanday qilib ikkita kasr bir xil qiymatga ega bo'lsa-da, ular qismlarining soni va qiymatlari turlicha bo'lishiga e'tibor qaratib, nima uchun <math>a / b</math> kasri (<math>n \times a</math>) / (<math>n \times b</math>) kasriga tengligini tushuntirish. Bu tamoyildan teng kasrlarni</p>

- aniqlash va hosil qilishda foydalanish.
- f) Turli surat va maxrajga ega ikkita kasrni taqqoslash, masalan umumiy maxraj yoki suratga keltirish orqali yoki  $\frac{1}{2}$  kabi andoza sifatida olingan kasrga taqqoslash orqali. Taqqoslashlar faqat ikkala kasr ham bitta butun sonni nazarda tutgan holdagini haqiqiy bo'lishini tushunish. Taqqoslash natijalarini  $>$ ,  $=$  yoki  $<$  belgilari yordamida qayd etish va kasrlarning ko'rgazmali modelidan foydalanib xulosalarni asoslash.
  - g)  $a > 1$  bo'lganda,  $a/b$  kasrni  $a$  ta  $1/b$  kasrlarining yig'indisi sifatida tushunish;
  - h) Kasrlarni qo'shish va ayirishni ayni bir butun jismning qismlarini mos ravishda birlashtirish va ajratish sifatida tushunish.
  - i) Kasrni bir necha usul bilan bir xil maxrajga ega kasrlar yig'indisiga ajratish; Tenglik yordamida har bir ajralgan qismni qayd etish. Ajralgan qismlarni masalan kasrlarning ko'rgazmali modelidan foydalanib asoslab berish. Misollar:  $\frac{3}{8} = \frac{1}{8} + \frac{1}{8} + \frac{1}{8}$ ;  $\frac{3}{8} = \frac{1}{8} + \frac{2}{8}$ ;
  - j)  $2 \frac{1}{8} = 1 + 1 + \frac{1}{8} = \frac{8}{8} + \frac{8}{8} + \frac{1}{8}$ .
  - k) Bir xil maxrajga ega aralash sonlarni qo'shish va ayirish. Masalan, har bir aralash sonni o'zaro teng bo'lgan kasr sonlarga almashtirish orqali va / yoki amallar xossalari, qo'shish va ayirish o'rtaqidagi munosbatlardan foydalanish orqali qo'shish va ayirish;
  - l) Bir butun songa tegishli va bir xil maxrajga ega kasrlarni qo'shish va ayirishga doir matnli masalalarni yechish. Xususan, kasrlarning ko'rgazmali modelidan va tengliklardan foydalanish orqali masalani yechish jarayonini namoyish etish;
  - m) Kasrni butun songa ko'paytirish uchun ko'paytirishga doir oldingi tushunchalarni qo'llash va kengaytirish.
  - n)  $a/b$  ni  $1/b$  ning  $a$  ga ko'paytmasi sifatida tushunish. Masalan,  $\frac{5}{4}$  ni  $5 \times (1/4)$  ning ko'paytmasi sifatida namoyish etish uchun kasrlarning ko'rgazmali modelidan foydalanish va xulosani  $\frac{5}{4} = 5 \times (1/4)$  tenglik ko'rinishida qayd etish.
  - o)  $a/b$  kasrni  $a$  ning  $1/b$  ga ko'paytmasi sifatida tushunish va bu tushunchadan kasrni butun songa ko'paytirishda foydalanish. Masalan,  $3 \times (2/5)$  ni  $6 \times (1/5)$  sifatida ifodalash uchun kasrlarning ko'rgazmali modelidan foydalanish va ko'paytma  $\frac{6}{5}$  bo'lishini tushunish. (Umumiyl holda,  $n \times (a/b) = (n \times a)/b$ ).
  - p) Kasrni butun songa ko'paytirishga doir matnli masalalarni xususan, masalani taqdim etish uchun kasrlarning ko'rgazmali modellaridan va tengliklardan foydalanish orqali yechish. Masalan, agar 5 kishilik ziyofatda har bir kishi bir kg qovurilgan mol go'shtining  $\frac{3}{8}$  qismini yesa, necha kg qovurilgan mol go'shti kerak bo'ladi? Javob qaysi ikki butun son orasida bo'ladi?
  - q) Maxraji 10 bo'lgan kasrni maxraji 100 bo'lgan kasr sifatida ifodalash va bu usuldan maxrajlari mos ravishda 10 va 100 bo'lgan ikkita kasrni qo'shishda foydalanish.4 Masalan,  $\frac{3}{10}$  ni  $30/100$  sifatida ifodalash va  $\frac{3}{10} + \frac{4}{100}$  ni qo'shib =  $34/100$  ni hosil qilish.
  - r) 10 yoki 100 maxrajlarga ega kasrlar uchun o'nli tizimdan foydalanish. Masalan,  $62/100$  ni 0,62 sifatida qayta yozish. Uzunlikni 0,62 metr sifatida ifodalash, 0,62 ni sonlar o'qida tasvirlash;
  - s) Ikkita o'nli kasrni ularning qiymatlari haqida fikrlash orqali yuzliklar bilan taqqoslash. Taqqoslashlar faqat ikkita o'nli kasr ayni bir butun songa tegishli bo'lgandagina to'g'ri bo'lishini anglash. Taqqoslash natijalarini  $>$ ,  $=$  yoki  $<$  belgilari orqali qayd etish va kasrlarning ko'rgazmali



	modellaridan foydalangan holda xulosalarni asoslash.
4. SA.2	<ul style="list-style-type: none"><li>a) Ko'paytirish amali qatnashgan tenglikni taqqoslash sifatida talqin etish, masalan, <math>35 = 5 \times 7</math> ni 5 marta 7 yoki 7 marta 5, deb talqin qilish.</li><li>b) Ko'paytmani taqqoslashga doir matnli masalalarni yechish uchun ko'paytirish va bo'lislis amallarini bajarish, masalan, ko'paytmani taqqoslashni yig'indini taqqoslashdan farqlagan holda, masalani tasvirlash uchun rasmlar va noma'lum son belgisi ishtirok etgan tengliklardan foydalanish1.</li><li>c) To'rtta amaldan foydalanib, butun sonlar ishtirokidagi va javoblari butun son bo'lgan ko'pbosqichli masalalarni, shu jumladan qoldiqlar izohlanishi kerak bo'lgan masalalarni yechish. Noma'lum miqdor harf bilan ifodalangan tengliklardan foydalanib, bu masalalarni ifodalash. Yodda hisoblash va baholash algoritmlaridan, shu jumladan, yaxlitlashdan foydalanib, hisoblash natijalarining naqadar asosli ekaniga baho berish.</li><li>d) Standart algoritm yordamida ko'p xonali butun sonlarni yodda qo'shish va ayirish.</li><li>e) O'nli sonlar va amallar xossalariiga asoslangan algoritmlardan foydalanib, to'rt xonali butun sonni bir xonali butun songa hamda ikkita ikki xonali sonni ko'paytirish. Tenglik, to'g'ri to'rtburchakli massivlar va / yoki yuz modellari yordamida hisoblashlarni tasvirlash va tushuntirish.</li><li>f) O'nli sonlar, amallar xossalari, ko'paytirish va bo'lislis o'rta sidagi munosabatlarga asoslangan algoritmlardan foydalanib, sonning butun qismi va to'rttagacha xonali bo'linuvchi va bir xonali bo'lувchi bo'lgan qoldiqlarni aniqlash. Tengliklar, to'g'ri to'rtburchakli massivlar va / yoki yuz modellari yordamida hisoblashni tasvirlash va tushuntirish.</li><li>g) Tengsizliklar haqida tasavvurga ega bo'lislis;</li><li>h) Bir xil yo'nalishdagi hamda qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatga doir 2 - 4 amalli, proporsional bo'lislis, ikki ayirma bo'yicha noma'lum sonni topishga, sonning ulushini va ulushi bo'yicha sonni topishga, vaqt, tezlik, tekis harakatda bosib o'tilgan yo'l, narx, miqdor, baho kabi kattaliklar orasidagi bog'lanishlarga oid masalalarni yechish.</li></ul>
4. SA3.	<ul style="list-style-type: none"><li>a) 1 bilan 100 oralig'idagi butun sonning barcha ko'paytuvchi juftliklarini aniqlash. Butun son har bir ko'paytuvchisining karralisi bo'lislini bilish. 1–100 oralig'idagi berilgan butun son berilgan bir xonali songa karrali bo'lishi yoki bo'imasligini aniqlash. 1–100 oralig'idagi berilgan butun son tub yoki murakkab sonligini aniqlash.</li><li>b) Berilgan qoida asosida son yoki shakl andozasini yaratish. Qoidada oshkor ravishda berilmagan qonuniyatlar xususiyatlarini yaqqol aniqlash. Masalan, "3 ni qo'shish" qoidasi berilgan bo'lsa va boshlang'ich son 1 bo'lsa, hadlarni ketma-ket keltirib chiqarish va hadlar toq yoki juft sonlar ko'rinishida navbatma-navbat kelishini kuzatish. Sonlar nima uchun shu tarzda almashinib kelishini tushuntirish.</li><li>c) Eng sodda mantiq elementlari ("...va...", "... yoki...", "... agar... bo'lsa, u holda ... bo'ladi" ko'rinishidagi) asosida mantiqiy ifodalarni to'g'ri tuzish.</li></ul>
4. SA4.	<ul style="list-style-type: none"><li>a) Sonlarni qo'shish va ko'paytirish jadvallaridan, arifmetik amallarning algoritmlaridan foydalangan holda 1 000 000 ichida butun sonlar ustida qo'shish va ayirish amallarini og'zaki va yozma bajarish, arifmetik amalda qatnashgan noma'lum tarkibiy qismini aniqlash;</li><li>b) 10, 100, 1000 ga ko'paytirish va bo'lislis amallarini og'zaki va yozma bajarish;</li><li>c) Bir xil ko'paytuvchilarni sonning darajasi ko'rinishida ifodalay olish;</li><li>d) Qo'shish va ko'paytirishning o'rin almashtirish, guruhlash va taqsimot</li></ul>



	xossalari tushunish va ularni hisoblashlarda qo'llash; e) Bir xil maxrajli sodda kasrlar ustida qo'shish va ayirish amallarini bajarish; f) O'nli kasrlarni 10 ga, 100 ga ko'paytirish va bo'lish.
<b>4. GO'</b>	<b>GEOMETRIYA VA O'LCHASHLAR</b>
<b>4. GO'.1</b>	a) Nuqta, to'g'ri chiziq, kesma, nur, burchaklar (to'g'ri, o'tkir, o'tmas) va perpendikulyar va parallel to'g'ri chiziqlarni chizish va ularni taniy olish; b) Parallel yoki perpendikulyar to'g'ri chiziqlar borligi yoki yo'qligi yoki belgilangan o'lchamdagи burchaklar borligi yoki yo'qligiga asoslanib, yassi shakllarni tasniflash. To'g'ri burchakli uchburchaklarni uchburchaklarning bir toifasi sifatida tushunish va to'g'ri uchburchaklarni aniqlash; c) Yassi shakl bo'ylab o'tkazilgan uning simmetriya o'qini - shaklni ikki teng bo'lakka bo'lувchi va bu bo'laklarni o'q bo'ylab bukib ustma-ust qo'yish mumkin bo'lgan to'g'ri chiziq sifatida tushunish. Yassi shakllarning simmetriya o'qini aniqlash va chizish. d) Turli yassi shakllar va fazoviy jismlar (parallelepiped, kub, shar) ni tasavvur qilish, tanish va nomlash; e) Ko'pyoq, to'g'ri burchakli parallelepiped, kub kabi sodda fazoviy shakllarning modellari va elementlarini aniqlash, chizmada bo'yash, nomlash; f) Tevarak atrofdagi sodda obyektlarni geometrik shakllar modellari bilan bog'lash, ayrim elementlarini o'lhash va chamlash.
<b>4. GO'.3</b>	a) Burchakni ikki nur umumiy uchga ega bo'lganda hosil bo'ladigan geometrik shakl sifatida tushunish va uni o'lhash; b) Burchak kattaligi, markazi nurlarning umumiy uchida bo'lgan aylana yoyi bilan aniqlanishi va nurlar aylanani kesib o'tgan nuqtalar o'rtasidagi aylana yoyi bilan o'lchanishini bilish. Aylananing 1/360 qismidan o'tuvchi burchak "bir gradusli burchak" deyilishi va undan burchaklarni o'lhashda foydalanishni bilish; c) n ta bir gradusli burchakdan hosil bo'lgan burchak n gradusli burchak kattaligiga ega ekanligini tasavvur etish; d) Transportir yordamida burchaklarni butun sonli graduslarda o'lhash. Belgilangan o'lchamdagи burchaklarni chizish. e) Burchak kattaligini additiv o'lcham, deb tushunish. Agar burchak ustma-ust tushmaydigan qismlarga ajratilsa, butun qismning burchak kattaligi qismlarning burchak kattaliklari yig'indisiga tengligini bilish. Hayotiy va matematik masalalarda diagrammadagi noma'lum burchaklarni topish uchun qo'shish va ayirishga doir masalalarni, masalan, noma'lum burchak o'lchami belgisi bo'lgan tenglamadan foydalanish orqali yechish; f) Koordinata boshi, koordinata o'qlari, koordinata burchagi, nuqtaning koordinatalari kabi atamalardan foydalanib, koordinata to'rini tuzish.
<b>4. GO'.4</b>	a) O'lchov birliklarining bitta tizimidagi o'lchov birliklarining, jumladan km, m, sm; kg, g; funt, untsiya; l, ml; soat, daqiqa, soniyaning nisbiy o'lchamlarini bilish. Yagona o'lchov tizimida katta birlikdagi o'lchamlarni kichik birliklarda ifodalash. O'lchov natijalarini ikki ustunli jadvalda qayd etish. Masalan, 1 fut 12 dyuymga tengligini bilish. 4 fut uzunlikdagi ilonni 48 dyuym deb ifodalash. (1, 12), (2, 24), (3, 36), ... son juftliklarini keltirish orqali futni dyuymga aylantirish jadvalini tuzish b) Masofa, vaqt oralig'i, suyuqlik hajmi, jism vazni va pul birliklari ishtirokidagi matnli masalalarni, shu jumladan oddiy kasrlar va o'nli kasrlar ishtirokidagi hamda katta birlikda berilgan o'lchamlarni kichik



	<p>birlikda ifodalashni talab etadigan masalalarni yechish uchun to'rtta amallardan foydalanish.</p> <p>c) O'lchanayotgan miqdorlarini o'lchash skalasi bor chiziqli diagrammalar yordamida tasvirlash;</p> <p>d) To'g'ri to'rtburchaklarning yuzi va perimetrini topish formulalarini hayotiy va matematik masalalarni yechishda qo'llash. Masalan, yuzni topish formulasini noma'lum ko'paytuvchi qatnashgan tenglama sifatida ko'rib, to'g'ri to'rtburchak shaklidagi xona polining berilgan yuzi va bo'yiga ko'ra uning enini topish;</p> <p>e) Massa birliklari va ular orasidagi munosabatlarni amaliy masalalarda qo'llay oladi;</p> <p>f) Yuz va hajm o'lchovli birliklari ( santimetr kvadrat, detsimetr kvadrat, metr kvadrat, santimetr kub, detsimetr kub, metr kub) dan amalda foydalanish va ularni <math>\text{mm}^2</math>, <math>\text{sm}^2</math>, <math>\text{dm}^2</math>, <math>\text{m}^2</math>, <math>\text{mm}^3</math>, <math>\text{sm}^3</math>, <math>\text{dm}^3</math>, <math>\text{m}^3</math> ko'rinishda belgilash;</p>
<b>4. ES.</b>	<b>EHTIMOLLIK VA STATISTIKA</b>
<b>4. ES.2</b>	<p>a) O'zgaruvchilarning qiymati yoki berilgan ma'lumotlarga ko'ra sodda grafik, murakkab bo'limgan diagramma, jadvallar, shkalalar tuzish.</p> <p>b) O'lchovlar bo'yicha ma'lumotlar to'plamini birlik kasrlarda (<math>1/2</math>, <math>1/4</math>, <math>1/8</math>) aks ettirish uchun chiziqli grafik yasash. Chiziqli grafikda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, kasrlarni qo'shish va ayirish bilan bog'liq masalalarni yechish. Masalan, chiziqli grafikda hashorotlar to'plamidagi eng uzun va eng qisqa namunalar orasidagi farqni aniqlash va sharhlash;</p> <p>c) To'plamlarning birlashmasi va kesishmasi haqida tasavvurga ega bo'lish, ularni Venn diagrammasi yordamida tasvirlash.</p>



## TUSHUNTIRISH XATI

Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish hamda mamlakatimiz yoshlarini matematika go'zallikllaridan bahramand bo'lishlariga sharoit yaratib berish – barcha uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yunalishlaridan biri sifatida belgilandi hamda matematika ilm-fani va ta'limi rivojlantirishini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofda kechayotgan voqeа va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda hamda ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyalarning taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Mashhur rus matematigi A.Ya.Xinchin ta'biri bilan aytganda: "Matematika fanini o'zlashtirib borish natijasida kishi sofdil, rostgo'y, haqiqat uchun kurashuvchi mard va vatanparvar bo'lib tarbiyalanadi".

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobat-bardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lif tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi mulohaza yuritishga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi.

Prezidentimiz aytganlaridek, "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Matematika olamni, dunyonи bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofimizdagи voqeа va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda ahamiyati juda katta, vaholanki matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tassavur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham *matematik madaniyat va savodxonlik* — umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:



## **Umumiy o'rta ta'limga matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi:**

o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsn shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

## **Umumiy o'rta ta'limga muassasalarida matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari:**

o'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalari, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash;

inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'limga olish ko'nikmalarini shakllantirish;

fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ijodkorlik (kreativlik) ni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Hozirda matematika fanini nazariylashtirgan holda o'qitishga, o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashishdan ma'lum darajada voz kechib, o'quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e'tiborni kuchaytiri-shimiz lozim bo'ladi.

Bundan ta'limga bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA - o'quvchilar yutuqlarini baholash dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik.

Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS - matematika va tabiiy fanlar ta'limga sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darjasini va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'limga tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Tadqiqotlarning natijalariga asoslangan holda matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va



mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

STEAM (S - science, T - technology, E - engineering, A - art, M - mathematics) ta'lif texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu texnologiyani amalga oshirishda o'quvchilar tomonidan turli texnik qurilmalarni yasash uchun loyihalar yaratish, loyiha asosida qurilmaning maketini yaratish va uni amaliyotda ishlatib ko'rish, kamchiliklarini topish hamda uni bartaraf etish kabi vazifalar bajariladi.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarini o'quvchilar tomonidan egallahshi nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limga asosini amaliy, tadbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

Shuningdek, o'quv dasturini tuzishda matematikani o'qitish sohasida muayyan yutuqlarga erishgan Singapur, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Rossiya va Belorusiya kabi xorijiy davlatlar tajribasidan eng ilg'or yondashuvlar tahlil qilindi va foydalanildi. AQSh ning EGMA - boshlang'ish (1- 6-) sinflarda sinflarda matematikadan bilim va ko'nikmalarni baholash tizimi imkoniyatlari o'rganib chiqildi.

Yuqorida holatlardan kelib chiqib, mazkur o'quv dasturi uchun ham aynan shu yondashuvlar asos qilib olindi.

O'qituvchilarni o'quv dasturini bajarishda bitta qolipga solib qo'ymaslik uchun, o'quv dasturidagi soatlar taqsimoti faqat boblar bo'yicha berildi. Soatlarning mavzular va darslar bo'yicha taqsimoti vazirlik tomonidan taklif qilinadigan namunaviy mavzuiy taqvim rejada berilishi nazarda tutilmoqda. Shunday bo'lsada, mavzularni o'qitishda o'qituvchilarga ijodiy yondashuv erkinligi, ya'ni turli omillarni hisobga olgan holda har bir sinf uchun soatlarni alohida taqsimlash imkoniyati ham beriladi. Bunda ajratilgan soatlardan mavzuni chuqurroq o'rganish uchun foydalanish tavsiya etiladi. Ishchi mavzuiy taqvim reja o'qituvchilar tomonidan tuziladi va ta'lif muassasasi pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lif fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lif samaradorligini oshiradi.

O'quvchilarning loyiha faoliyatini amalga oshirishi uchun dasturda alohida soatlar ajratilgan. Shunday bo'lsada, o'quvchilar bir o'quv yilida



o‘zları qiziqqan fani yoki ta’lim sohasidan faqat bitta loyiha ishini bajarishlari tavsiya etiladi. Loyiha ishi mavzulari o‘qituvchilar tomonidan bitta yoki bir necha o‘quv fanlari doirasida muammoli vaziyat yoki keys sifatida tanlanadi. Loyiha ishi uchun ajratilgan soatlarda o‘qituvchi: boshida loyiha ishi mavzularini o‘quvchilar orasida taqsimlaydi, ularni bajarish uchun yo‘riqnomalar va maslahatlar beradi. So‘ng tayyor loyiha ishlaridan namunalar keltiradi, o‘quvchilarning loyiha ishini bajarishi davomida yuzaga kelgan savollariga javob beradi hamda oxirida loyiha ishi himoyasini o‘tkazadi.

Loyiha ishi mavzusi ustida o‘quvchilar alohida-alohida yoki qiziqishlariga qarab 3-4 kishilik guruh bo‘lib ishlashlari ham mumkin. Bunda guruhiy ishga ko‘proq urg‘u bergen ma’qul. Loyiha ishi o‘quv yili oxirida o‘tkaziladigan himoya bilan tugaydi. Himoyani bitta yoki bir necha o‘quv fanlari doirasida konferensiya tarzida o‘tkazilishi mumkin. Loyiha ishi mavzusi ustida o‘quvchilarning individual yoki guruhiy ishi quyidagi o‘quv faoliyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin: o‘z izlanish faoliyatlarini rejalashtirish, vazifalarni o‘zaro taqsimlab olish, oldilariga o‘quv maqsadlarini qo‘yish, kerakli ma’lumotlarni izlab topish, mavzuga doir muammoli vaziyat yechimlarini qidirish, ulardan eng maqbulini tanlash va uni asoslash, zarur hollarda so‘rovlар yoki tajribalar o‘tkazish, loyiha ishi natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash, o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash, loyiha ishi himoyasi uchun taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish. Bu faoliyatlar mos fan doirasida ajratilgan soatlar hisobidan amalga oshiriladi. O‘quvchilar loyiha ishi muammosi bo‘yicha izlanishlarini odatda darsdan tashqari mustaqil mashg‘ulotlarda olib borishadi. Turli fanlardan dars soatlari sifatida ajratilgan mashg‘ulotlarda esa ular maslahatlarni tegishli fan o‘qituvchilaridan olishadi, hisob-kitoblarni matematika darslarida, taqdimot slaydlarini informatika darslarida bajarishadi, xullas bu soatlarda o‘z mavzulari bo‘yicha guruh bo‘lib ishlashadi hamda boshqa guruh ishlari bilan tanishishadi.

Shuningdek, dasturga har bir nazorat ishidan keyin xatolar ustida ishslash soatlari ham kiritildi. O‘qituvchi xatolar ustida ishslash darsida nazorat ishi natijalariga ko‘ra o‘quvchilarda aniqlangan bo‘shtiqlarni bartaraf etish maqsadida xatolarni tushuntiradi, o‘quvchilar esa nazorat ishida berilgan topshiriqlarga o‘xshash topshiriqlarni yechadi va xulosalar chiqaradi.

Har bir sinf oxirida takrorlash uchun soatlar ham belgilangan bo‘lib, bu soatlardan nafaqat takrorlash, balki u yoki bu bobni o‘rganish uchun qo‘srimcha soatlar sifatida ham foydalanish mumkin.

Mazkur o‘quv dasturi asosida matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko‘ra ko‘proq amaliyotga e’tibor berish hamda o‘quvchilarga tayyor o‘quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma’lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko‘proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o‘quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan



foyдаланиш тавсиya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lhashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan ornida foyдаланиш talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qollay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastur oxirida qo'shimcha o'r ganish uchun tavsiya etilayotgan o'quv uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati keltirilgan. Ulardan mavzuni chiqurlashtirish maqsadida yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilar bilan ishslash jarayonida foyдаланиш mumkin.

LOYIHA



## I SINF

### I bo'lim. 1 DAN 10 GACHA BO'LGAN SONLAR. 10 ICHIDA QO'SHISH VA AYIRISH (45 soat)

#### Narsalar va ularning xossalari.

Narsalar va ularning xossalari: rangi, shakli, o'lchami, materiali. Bir xil, har xil tushunchalari.

**Narsalarni taqqoslash.** Uzun-qisqa, keng-tor, baland-past, yo'g'on-ingichka (qalin-yupqa), ortiq-kam. Narsalarni rangi, shakli bo'yicha taqqoslash.

**Narsalarning o'zaro joylashuvi.** Narsalarning o'zaro joylashuvi haqida fazoviy tasavvurlar; „ustida”-“ostida”, „chapda”-“o'ngda”, o'rtada”, „chetida”, „yuqorida pastga”, „pastdan yuqoriga” va hokazo.

**Narsalarni xossalari bo'yicha to'plamlarga ajratish.** Narsalar to'plami (bir xil, har xil). Narsalardan berilgan xossaga ega bo'lgan (rangi, o'lchami, shakli, vazifasiga ko'ra) bitta yoki bir nechtasini ajratish.

**To'plamlarni taqqoslash.** To'plamlarni undagi narsalar soni bo'yicha taqqoslash: „katta”, „kichik”, „teng”, „ko'p”, „kam” tushunchalari.

**1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning atalishi.** Natural sonlar qatoridan birinchi o'nlik sonlarning atalishi va ketma-ketligi.

**Narsalarni sanash.** Berilgan songa 1 ni qo'shish bilan undan keyin keladigan sonni hosil qilish, sondan 1 ni ayirish bilan bevosita undan oldin keladigan sonni hosil qilish. Narsalarni 10 ichida to'g'ri va teskari tartibda sanash. Sonlarni raqam yordamida yozish.

**“Katta”, „kichik”, „teng”, „teng emas” tushunchalari.** „Katta” va „kichik” tushunchalari. Sonlarni taqqoslash (teng, teng emas, katta, kichik), „=”, „≠”, „>”, „<” belgilari.

**1 dan 5 gacha bo'lgan sonlarni raqamlash.** 1, 2, 3, 4, 5 sonining tartibi va tarkibi. 1, 2, 3, 4, 5 sonining o'qilishi va yozilishi. 1, 2, 3, 4, 5 soniga doir misol va masalalar.

**5 ichida “=”, “+”, “-” belgilaridan foydalanib natijalarni yozish.** 5 soni ichida misol va masalalar. Hisoblashda “+”, “-” belgilari. Sonlarning ikki kichik sondan iborat tarkibi. Narsalarni sanashga doir oddiy arifmetik masalalar.

**6 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni raqamlash.** 6, 7, 8, 9 sonining tartibi va tarkibi. 6, 7, 8, 9 sonining o'qilishi va yozilishi. 6, 7, 8, 9 soniga doir misol va masalalar.

**0 soni va raqami. 10 soni.** 0 soni va uni belgilash. 10 sonining tarkibi, o'qilishi va yozilishi. 10 soni ichida qo'shish va ayirish.

**10 ichida “=”, “+”, “-” belgilaridan foydalanib natijalarni yozish.** Yig'indi va ayirmani topishga doir oddiy arifmetik masalalar (rasmlardan foydalanilgan holda narsalar ustida amaliy ishlar va hisoblashlar).



**1 dan 10 gacha boʻlgan sonlarni taqqoslash.** Katta, kichik, teng, katta emas, kichik emas munosabatlari va ularga mos belgilar.

**Vaqt tasavvurlari.** Vaqt tasavvurlari: avval, keyin, oldin, oldinroq, keyinroq. Hafta. Hafta kunlari va sanogʻi.

**Juft va toq sonlar.** Juft va toq sonlarni farqlash. Oralatib sanash.

**Nuqta. Kesma. Siniq chiziq va egri chiziq. Nur.** Nuqta, kesma, siniq chiziq va egri chiziq, nur. Narsalarning uzunligi. Shartli oʻlchov asbobi yordamida narsaning uzunligini oʻlchash. Kesmaning uzunligi.

**Bir nechta tayoqchalardan har xil shakllar tuzish**

**Juft rasmlardagi farqlarni topish.** Rasmlarni taqqoslash, farqlarni topish va savollarga javob berish hamda mantiqiy misol va masalalar yechish.

**Sodda rasmlar ketma-ketligini davom ettirish yoki begona rasmni topish.** Sodda rasmlar ketma-ketligidagi qonuniyatni aniqlash, uni davom ettirish va begona rasmni topish.

**Nol ishtirokida qoʼshish va ayirish.** Qoʼshishda 0 ning xossasi. Ayirishda 0 ning xossasi.

**Qoʼshish va ayirish amallarining tarkibiy qismlari.** Qoʼshish amalining tarkibiy qismlari (birinchi qoʼshiluvchi, ikkinchi qoʼshiluvchi, yigʼindi). Ayirish amalining tarkibiy qismlari (kamayuvchi, ayriluvchi, ayirma).

**Qoʼshish va ayirish amallarining maʼnosи.** Qoʼshish va ayirish amallarining maʼnosи. Nomaʼlum qoʼshiluvchini topish. Nomaʼlum kamayuvchini topish. Nomaʼlum ayriluvchini topish. Qoʼshishning toʼgʼriligini ayirish yordamida tekshirish. Ayirishning toʼgʼriligini qoʼshish yordamida tekshirish.

**Qoʼshishning oʼrin almashtirish xossasi.** Boʼlaklab qoʼshish usuli. Sonlarning oʼrinlarini almashtirish. Qoʼshishning oʼrin almashtirish xossasi; boʼlaklab ayirish va ayirish bilan qoʼshish orasida bogʼlinishga asoslangan ayirish usuli.

## **II boʼlim. 11 DAN 20 GACHA BOʼLGAN SONLARNI RAQAMLASH 20 ICHIDA OʼSHISH VA AYIRISH.**

**(45 soat)**

**11 dan 20 gacha boʼlgan sonlarning atalishi.** 10 sañoq birligi sifatida. 20 gacha boʼlgan ikki xonali sonlar. 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20 sonlarining tarkibi. 20 ichida boʼlgan sonlarni oʼqish, yozish va ular ishtirokidagi misol va masalalar.

**11 dan 20 gacha boʼlgan sonlarning oʼnlik tarkibi.** 11 dan 20 gacha boʼlgan sonlarning oʼnlik tarkibi. 11 dan 20 gacha boʼlgan sonlarni taqqoslash.

**Qavslar.** Qavslar ifodalar. Songa yigʼindini yoki ayirmani qoʼshish. Yigiʼndi yoki ayirmadan sonni ayirish.



**Sonlarni o'nlikdan o'tib qo'shish va ayirish.** 9+2, 9+3, 8+3, 9+4, 8+4, 7+4, 9+5, 8+5 ....6+5, ...8+8, 9+8, 9+9 yig'indilarni hisoblash. Yig'indisi 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18 ga teng bo'lgan ikkita bir xonali sonni qo'shish.

11- 2, 11- 3, 11- 4, 11- 5, 11- 6, 11- 7, 11- 8, 11- 9, 12- 3, 13- 4, 14- 5, 15- 6, 16-7, 17- 8, 18- 9 ayirmalarni hisoblash.

**Qo'shish va ayirish jadvallari.** Bir xonali sonlarni qo'shish va ayirish jadvali. Yig'indini va ayirmani topishga doir tarkibli masalalar.

**Sonlarni qo'shish va ayirish yordamida taqqoslash.** Qo'shish va ayirish yordamida sonlarni taqqoslash.

**Sonni bir necha birlikka oshirish va kamaytirish.** Sonni bir necha birlik orttirish (kamaytirish)ga va yig'indini topishga doir, sonni yig'indidan va yig'indidan sonni ayirishga doir masalalar tuzish. Bo'laklab hamda qo'shish va ayirishning o'zaro aloqalari asosida ayirishning umumiy usuli.

**Uzunlik va uning birligi: santimetr. Chizg'ich bilan ishlash.** Santimetr - uzunlik birligi. Santimetr modelini yasash. Chizg'ich yordamida berilgan uzunlikdagi kesmani chizish.

**Kesmaning uzunligini o'lchash va taqqoslash.** Kesmaning uzunligi (ikki nuqta orasidagi masofani) ni santimetrlarda o'lchash va taqqoslash. Ko'z bilan chamalab, qo'lda uzunligi 1 va 2 cm bo'lgan kesma chizish.

### **III bo'lim. 21 DAN 100 GACHA BO'LGAN SONLARNI RAQAMLASH (30 soat)**

**21 dan 100 gacha sonlarni o'qish va yozish. 100 gacha bo'lgan sonlarni taqqoslash.** 21 dan 100 gacha sonlarni o'qish va yozish. Ularning o'nlik tarkibi. 21 dan 100 gacha bo'lgan sonlar ishtirokida misol va masalalar.

**100 ichida qo'shish va ayirish.** 100 sonini hosil qilish. 100 ichida sonlarni og'zaki qo'shish va ayirishda qo'shish va ayirish amallarining xossalalarini qo'llash. Nol bilan tugaydigan ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirish.

**100 dan bir va ikki xonali sonni ayirish.** 100 dan bir xonali, ikki xonali sonlarni ayirish.

**Sonli ketma-ketliklarni davom ettirish.** Sonli ketma-ketlikdagi qonuniyatni aiqlash. Qonuniyat bo'yicha sonli ketma-ketlikni davom ettirish yoki begona sonni topish.

**Matnli masalalar.** Qo'shish va ayirishga doir turli sodda matnli masalalar. Uchinchi qo'shiluvchini topishga doir, sonni yig'indiga qo'shish va yig'indini songa qo'shishga doir matnli masalalar.

**"...ta oshirish", "...ta kamaytirish" tushunchalari.** Noma'lum kamayuvchini, noma'lum ayriluvchini topishga doir masalalar.

**Sonli ifodalar.** Sonli ifodalar (2 amalli). Ikki amalli ifodalarda amallarni bajarish tartibi (qavslı va qavssız).



**Tarkibli masalalar.** Ikki amallli masalalar. Yig'indini va ayirmani topishga doir tarkibli masalalar.

#### **IV bo'lim. GEOMETRIK SHAKLLAR VA KATTALIKLAR (26 soat)**

**Burchak turlari.** Burchak turlari. To'g'ri burchak. To'g'ri burchakdan katta (o'tmas) yoki kichik (o'tkir) burchaklar. Katak daftarga to'g'ri burchak chizish.

**Uchburchaklar va to'rtburchaklar.** Uchburchak va uning elementlari. To'rtburchak va uning elementlari. To'g'ri to'rtburchak va kvadrat.

**Ko'pburchaklar.** Ko'pburchak elementlari (uchi, tomoni, burchagi).

**Uzunlik birliklari – detsimetr, metr. Ular orasidagi munosabat.** Detsimetr va metr Santimetr , detsimetr va metr orasidagi munosabatlar. Santimetrlarga bo'lingan detsimetr modelini yasash.

**Aylana va doira.** Aylana va doira haqida tushuncha.

**Simmetriya.** Simmetrik shakllar. Simmetriya o'qi. Bir yoki bir nechta simmetriya o'qiga ega shakllarga misollar. Shakllarni buklab simmetrik qismlarga ajratish.

**Qismlardan butunni, butundan bo'laklarni hosil qilish.** Qismlardan yaxlit shakl tuzish, butun shaklni qismlarga ajratish. Qismlardan butunni, butundan bo'laklarni hosil qilishga doir masalalar.

**Turli shakllar yasash.** Namuna bo'yicha shakllarni yasash. Katakli qog'ozda to'g'ri to'rtburchak hosil qilish. Kvadrat va to'g'ri to'rtburchak bo'laklaridan yangi shakllar hosil qilish. Modellar ustida amallar.

**Sodda fazoviy shakllar.** Kub va shar haqida dastlabki tasavvur.

**Massa va sig'im o'lchov birligi.** Massa o'lchov birligi - kilogramm. Sig'im o'lchov birligi - litr. Massa va sig'im haqida qo'shish va ayirishga doir sodda masalalar.

#### **V bo'lim. MA'LUMOTLAR BILAN ISHLASH (14 soat)**

**Jadvallar.** Sodda jadvallarni o'qish. O'lchash natijalarini jadval ko'rinishda ifodalash. Berilgan ma'lumotlar asosida jadval to'ldirish.

**Mantiqiy tushunchalar.** "Shakli, bir xil" "shakl turlicha" tushunchalari. "Barchasi", "ayrimlari", "...dan tashqari barchasi", "har qanday", "ixtiyoriy", "...lardan biri", "barchasidan biri" va ularning ma'nolari.

**Sonlar va rasmlar ketma-ketligiga doir masalalar.** Shakllar va rasmlar ketma-ketligidagi qonuniyatni aniqlash, ularni davom ettirishga oid masalalar. Sonlar (rasmlar) ketma-ketligidagi "begona" sonni (rasmni) topish.

#### **Takrorlash (5 soat)**



## MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy topshiriq va nazorat ishi
1.	Narsalarning to'plamlari. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar. 10 ichida qo'shish va ayirish amallari	45	20	25
2.	11 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni raqamlash. 20 ichida qo'shish va ayirish	45	20	25
3.	21 dan 100 gacha bo'lgan sonlarni raqamlash	30	10	20
4.	Geometrik shakllar va kattaliklar	26	10	16
5.	Ma'lumotlar bilan ishlash	14	4	10
	Takrorlash	5		5
<b>Jami:</b>		<b>165</b>	<b>64</b>	<b>101</b>



## II SINF

### I SINFDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH (10 soat)

**Yig'indi va ayirmani topishga doir misollar.**  $30 + 20, 50 - 20, 47 + 3, 38 - 30, 47 - 32, 27 + 32, 36 - 14$  ko'rinishdagi misol va masalalar.

**Yuz ichida qo'shish va ayirish amallari.** Yuz ichida qo'shish va ayirish. Yuz ichida yig'indini va ayirmani topishga doir matnli masalalar.

**Geometrik shakllar va o'lchashlarga doir masalalar.**

### I bo'lim. YUZ ICHIDA SONLARNI QO'SHISH (20 soat)

**Sonlar nuri tushunchasi.** Sonlar nuri modelini tuzish. Sonlar nurida sonlarning joylashuvi.

**Ikki xonali sonlar.** Ikki xonali sonning birliklari va o'nliklari. Ikki xonali sonni xona qo'shiluvchilari yig'indisi shaklida tasvirlash.

**Yuz ichida sonlarni xonadan o'tib qo'shish usullari.** Yuz ichida xonadan o'tib qo'shish usullari. Sonni yig'indiga qo'shish va yig'indiga sonni qo'shish.

**Yuz ichida ikki xonali sonlarni ustun shaklida qo'shish.** Sonlarni ustun shaklida xonadan o'tib qo'shish ( $64+26, 29+37$  kabi misollar).

**Qo'shishga doir tarkibli masalalar.** Qo'shish amalining tarkibiy qismlari: 1-qo'shiluvchi, 2-qo'shiluvchi va yig'indi. Noma'lum yig'indini topishga doir (tarkibli) masalalar.

### II bo'lim. YUZ ICHIDA SONLARNI AYIRISH (20 soat)

**Yuz ichida sonlarni xonadan o'tib ayirish usullari.** Yuz ichida xonadan o'tib ayirish usullari. Sondan yig'indini ayirish va yig'indidan sonni ayirish.

**Sonlarni ayirishning ustun shakli.** Yuz ichida sonlarni xonadan o'tib ayirishning ustun shakli, Hol bilan tugaydigan (yaxlit) sondan ikki xonali sonni ayirish.

**Ayirishga doir tarkibli masalalar.** Ayirish amalining tarkibiy qismlari: kamayuvchi, ayriluvchi va ayirma. Noma'lum kamayuvchi, ayriluvchi yoki ayirmani topishga doir (tarkibli) masalalar. Noma'lum qo'shiluvchini topish. Ayirish va qo'shishga doir tarkibli masalalarni yechish.

**Qo'shish va ayirish amali natijalarini tekshirish.** Qo'shish natijasi - yig'indini ayirish bilan, ayirish natijasi - ayirmani qo'shish bilan tekshirish.

**Qo'shish va ayirishga doir misol va masalalar.** Qo'shish va ayirishga doir ikki amalli misol va masalalar.

**Sonlar va shakllar ketma-ketligini mantiqiy davom ettirish.** Biror qonuniyat asosida tuzilgan sonlar (shakllar) ketma-ketligi. Sonlar ketma-ketligining tuzilish qonuniyatini aniqlash, sonlar ketma-ketligini to'ldirish va



davom ettirishga doir masalalar. Shakllar ketma-ketligini mantiqan davom ettirish.

### **III bo'lim. GEOMETRIK SHAKLLAR (15 soat)**

**Yassi geometrik shakllar.** Sodda yassi geometrik shakllarni tasavvur etish, tanish va nomlash: kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, doira. Geometrik shakllarni harflar bilan belgilash.

**Sodda geometrik shakllardan murakkab shakllar hosil qilish.** To'g'ri to'rtburchak, kvadrat, uchburchak, doiradan murakkab shakllar hosil qilish. Naqshlar tuzish.

**Kvadrat va to'g'ri to'rtburchak.** Kvadrat va to'g'ri to'rtburchak. To'g'ri to'rtburchak qarama-qarshi tomonlarining xossalari. Kvadrat va to'g'ri to'rtburchak perimetri.

**Ko'pburchak va uning perimetri.** Ko'pburchak. Ko'pburchak perimetri va uni hisoblash.

**Fazoviy geometrik shakllar.** Fazoviy geometrik shakllarni tasavvur etish, tanish va nomlash: kub, parallelepiped, silindr, konus, shar.

### **IV bo'lim. SONLARNI KO'PAYTIRISH (20 soat)**

**Bir nechta teng (bir xil) qo'shiluvchilar yig'indisi.** Bir nechta bir xil qo'shiluvchilar yig'indisini topish va sonni bir necha teng qo'shiluvchilar yig'indisi shaklida ifodalash.

**Ko'paytirish amali va uning ma'nosи.** Ko'paytirish. Ko'paytirish amalining ma'nosи. Ko'paytirishning bir xil qo'shiluvchilar yig'indisini topish ekanligi. Amalning atalishi va belgilanishi. Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi.

**2 sonini bir xonali songa ko'paytirish.** 2 sonini bir xonali songa ko'paytirish jadvalini tuzish.

**3 (4, 5, 6, 7, 8, 9) sonini bir xonali songa ko'paytirish.** 3 (4, 5, 6, 7, 8, 9) sonini bir xonali songa ko'paytirish jadvali. Jadval ichida ko'paytirishga doir misol va masalalar.

**0, 1 va 10 ga ko'paytirish.** 0, 1, 10 ga ko'paytirish qoidalari va ularga doir misollar.

**Bir xonali sonlarning ko'paytirish jadvali.** Bir xonali sonlarning ko'paytirish jadvali va unga mos misollar.

**Ko'paytirishga doir tarkibli masalalar.** Ko'paytirish amalining tarkibiy qismlari: 1-ko'paytuvchi, 2-ko'paytuvchi va ko'paytma. Noma'lum ko'paytmani topishga doir (tarkibli) masalalar.



## V bo'lim. SONLARNI BO'LISH (30 soat)

**Teng qismlarga bo'lismi.** Narsalar to'plamini teng qismlarga bo'lismi. Shaklli modellarni teng qismlarga bo'lismi.

**Sonlarni bo'lismi.** Bo'lism amali va uning ma'nosi.

**Sonni 2 ga bo'lismi.** Sonni 2 ga bo'lismi. Sonlarni 2 sonini bo'lism jadvalini tuzish.

**Ko'paytirish va bo'lishga oid sodda masalalar.** 2 ga ko'paytirish va bo'lishga oid sodda masalalar yechish. Juft va toq sonlar.

**Sonni 3 (4, 5, 6, 7, 8, 9) ga bo'lishi.** Sonlarni 3 (4, 5, 6, 7, 8, 9) ga bo'lish jadvallari. Jadval ichida bo'lishga doir misol va masalalar.

**Ko'paytirish va bo'lishga doir masalalar.** Ko'paytirish amali bilan yechiladigan masalalar. Bo'lish amali bilan yechiladigan masalalar.

**Ko'paytirish va bo'lish natijalarini tekshirish.** Ko'paytirishni bo'lish bilan, bo'lishni ko'paytirish bilan tekshirish.

**Bo'lishga doir tarkibli masalalar.** Bo'lish amalining tarkibiy qismlari: bo'linuvchi, bo'luvchi va bo'linma. Noma'lum bo'linuvchi, bo'luvchi yoki bo'linmani topishga doir (tarkibli) masalalar. Noma'lum ko'paytuvchini topish. Bo'lish va ko'paytirishga doir tarkibli masalalarni yechish.

**1 va 10 ga bo'lish.** 1 va 10 ga bo'lish qoidalari va ularga doir misollar.

**Uzunlik o'lchov birligi - millimetr.** Millimetrr. Belgilanishi - mm. Millimetrr, santimetr, detsimetr orasidagi munosabatlar. Uzunliklarni o'lchash va hisoblashga doir masalalar.

**To'g'ri to'rtburchak va kvadratning yuzi.** To'g'ri to'rtburchak va kvadratning yuzi. Yuz birligi – santimetr kvadrat. Belgilanishi – cm.kv. (cm<sup>2</sup>).

**Katakli daftarga chizilgan shakllar yuzi.** Katakli daftarga chizilgan shakllar. Katakli daftarga chizilgan to'g'ri to'rtburchakning yuzini kataklar sonini sanab aniqlash.

## VI bo'lim. SONLI VA HARFLI IFODALAR. TENGLAMALAR (15 soat)

**Sonli ifodalar.** Sonli ifodalar. Ikki yoki uch amalli sonli ifodalar.

**Qavqli va qavssiz sonli ifodalar.** Qavqli va qavssiz ifodalarda amallarni bajarish tartibi. Qavqli va qavssiz ifodalarning qiymati.

**Harfli ifodalar.** Harfli ifoda tushunchasi. Harfli ifodalarning o'qilishi va yozilishi.

**Komponentlar orasidagi bog'lanishlar.** Har bir amal komponentlari va natijalari orasidagi o'zaro bog'lanishlar.

**Tenglama va uni yechishning tanlash usuli.** Tenglama va uning ildizi tushunchalari.  $27 + x = 27$ ,  $35 - x = 30$ ,  $x - 3 = 7$  ko'rinishdagi tenglamalarni tanlash usuli bilan yechish.



## VII bo'lim. ULUSHLAR (15 soat)

**Aylana va doira. Sirkul.** Aylana va doiraning farqi. Aylana markazi, radiusi, diametri. Sirkul yordamida ishlash.

**Sonning ulushi. Sonning ulushini so'zlar yordamida ifodalash.** Sonning ulushi haqida tushuncha. Sonning ulushini so'zlar ("yarim", "chorak", "nimchorak") yordamida ifodalash, modellarda tasvirlash.

**Bo'laklari bo'yicha shaklni yasash va bo'laklarga ajratish.** Shakllarni taqqoslash va bo'yash. Bo'laklari bo'yicha shaklni yasash va bo'laklarga ajratishga doir topshiriqlar.

**Vaqt va vaqt birliklari: soat, minut.** Vaqt birliklari: soat va minut va ular orasidagi munosabat. Soat bo'yicha vaqtini minutgacha aniqlash. Vaqtga doir misol va masalalar.

## VIII bo'lim. MA'LUMOTLAR BILAN ISHLASH VA VAQT (15 soat)

**Jadvallar.** Jadval, uning qatori, ustuni va kataklari. Jadvaldagi ma'lumotlarni o'qish va to'ldirish.

**Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash.** Bir xonali sonlarni ko'paytirish va bir xonali songa bo'lish natijalarini jadval shakliga keltirish hamda undan masalalar yechishda foydalanish.

**Jadvalga doir masalalar yechish.** Berilgan jadval asosida masalalar yechish. Shaxmat taxtasi – jadval sifatida. Shaxmat taxtasini chizish. Uning qatorlari, ustunlari, kataklari va ularning nomlanishi (belgilanishi). Shaxmat taxtasida katak nomiga (Koordinatalariga) ko'ra o'zini topish.

**Kundalik hayotda uchraydigan joylarni koordinatalarda ifodalash.** Kinoteatrtdagi o'rnlarning belgilanishi (koordinatalari) va ularga chipta bo'yicha joylashish.

### Takrorlash (10 soat)

## MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy topshiriq va N.I.
	1-sinfda o'tilgan materiallarni takrorlash va umumlashtirish	10		10
1	Yuz ichida sonlarni qo'shish	20	10	10
2	Yuz ichida sonlarni ayirish	20	10	10
3	Geometrik shakllar	15	5	10
4	Sonlarni ko'paytirish	20	10	10
5	Sonlarni bo'lish	30	10	20
6	Sonli ifodalar. Tenglamalar.	15	5	10
7	Ulushlar	15	5	10
8	Ma'lumotlar bilan ishlash. Vaqt	15	5	10
	Takrorlash	10		10
Jami:		170	60	110



### III SINF

## II SINFDA O'TILGAN MATERIALNI TAKRORLASH VA UMUMLASHTIRISH (10 soat)

**Ikki va uch xonali sonlarni qo'shish va ayirish.** Ikki va uch xonali sonlarni xonadan o'tib qo'shish va ayirish usullari. Qavslı ifodalar. Qo'shishning guruhlash xossasi. Sondan yig'indini va ayirmani ayirish.

**Ko'paytirish va bo'lism.** 0 ni songa, sonni 1 ga va sonni o'zini o'ziga bo'lism. Ko'paytuvchilarning o'rinalarini almashtirish xossasi. Sonning bir necha ulushini va ulushi bo'yicha sonning o'zini topish. Ko'paytirish va bo'lism jadvalari, Pifagor jadvali haqida ma'lumot.

**Sodda kombinatorik va mantiqiy masalalar.**

## I bo'lim. JADVALDAN TASHQARI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH. GEOMETRIK SHAKLLAR

(45 soat)

**Ikki xonali sonlar ishtirokida ko'paytirish.** Nollar bilan tugaydigan ikki xonali sonlarni bir va ikki xonali songa og'zaki ko'paytirish. Ikki xonali sonni bir va ikki xonali songa yozma ko'paytirish usullari. Ko'paytirishning o'rinni almashtirish xossasi. Uch va undan ortiq ko'paytuvchilarni ko'paytirish.

**Ikki xonali sonlar ishtirokida bo'lism.** Nollar bilan tugaydigan ikki xonali sonlarni bir va ikki xonali songa og'zaki bo'lism. Ikki xonali sonni bir va ikki xonali songa yozma bo'lism usullari.

**Ko'paytirish va bo'lismni tekshirish.** Ko'paytirishni bo'lism bilan, bo'lismni ko'paytirish bilan tekshirish.

**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

**Qoldiqqli bo'lism.** Qoldiqqli bo'lismga doir misol va masalalar. Qoldiqqli bo'lismni tekshirish.

**To'g'ri chiziq.** To'g'ri chiziqni belgilash. Chizg'ich yordamida bitta nuqtadan bir nechta to'g'ri chiziq o'tkazish. Ikkita nuqta orqali faqat bitta to'g'ri chiziq o'tkazish.

**Kesma, nur, to'g'ri chiziq.** To'g'ri chiziqdan nur va kesma hosil qilish. Kesma uzunligini chamalash, qog'ozdag'i chiziqlar, ip yordamida taqqoslash.

**Ming ichida uch xonali sonlar ishtirokida ko'paytirish va bo'lism.** Nollar bilan tugaydigan uch xonali sonlarni bir va ikki xonali songa og'zaki ko'paytirish va bo'lism. Uch xonali sonni bir va ikki xonali songa yozma ko'paytirish va bo'lism usullari.

**Ko'paytirishning o'rinni almashtirish xossasi.** Ko'paytirishning o'rinni almashtirish xossasi. Ko'paytirishni bo'lism bilan bo'lismni ko'paytirish bilan tekshirish. Qoldiqqli bo'lismni tekshirish. Tarkibli misol va masalalar.



## Mavzular kesimida misol va amaliyotga yo'naltirilgan mantiqiy masalalar.

**Sonning bo'luvchi va karralilarini aniqlash.** Sonning bo'luvchi va karralilarini aniqlashning sodda hollari (jadval va modellarda).

**Amallarni bajarish tartibi.** Amallarni bajarish algoritmi. Qavslari va qavssiz amallarda amallarni bajarish tartibining farqlari. Qavslari ifodalarda amallarni bajarish tartibi.

**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

**Uchburchak turlari.** Teng tomonli, teng yonli, turli tomonli uchburchaklar.

**Kesmani, to'g'ri to'rtburchak va doirani teng bo'laklarga bo'lish.** Kesmani, to'g'ri to'rtburchak va doirani teng bo'laklarga bo'lish. Shaklning yarim, chorak, nimchorak qismlarini topish.

**Rebuslar. Boshqotirmalar.** Ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi mantiqiy misollar (qog'ozni buklash natijasida hosil bo'lgan geometrik shakllar), boshqotirmalar, rebuslar.

## II bo'lim. IFODALAR. MULOHAZA. TENGSIZLIKLER. GEOMETRIK SHAKLLAR (20 soat)

**Harfiy ifodalar.** Sonli va harfiy ifodalar. Berilgan ifodaning qiymatini topish, ular ustida amallar. Ikki o'zgaruvchili  $a+b$ ,  $a-b$ ,  $a \cdot b$ ,  $a:b$  kabi ifodalarning qiymatini berilgan sonlar orqali topish.

**Tarkibli masalalar.** Masalalarni yechishda qisqa yozuvdagagi noma'lum hadlarni topishga qaratilgan tenglamalar tuzish.

Tenglamalarga oid nostandard misol va masalalar.

**Tengsizlik. Katta emas va kichik emas ( $\leq$  va  $\geq$ ) belgilari.**  $x \leq 6$ ,  $x \geq 12$  ko'rinishdagi tengsizliklar. Katta emas va kichik emas ( $\leq$  va  $\geq$ ) belgilariiga oid nostandard misollar.

**Rost va yolg'on mulohazalar.** Mantiq elementlari: mulohaza, rost va yolg'on mulohazalarga misollar.

**Parallel va perpendikulyar to'g'ri chiziqlar.** Parallel va perpendikulyar to'g'ri chiziqlar va ularga doir hayotiy namunalar (misollar).

**Katakli daftarda o'qqa nisbatan simmetrik shakllarni yasash.** Berilgan rasm (chizma)lardan simmetriyaga oid shakllar yoki simmetrik qismlarni aniqlash. Ushbu usulda simmetriya o'qining mavjudligi yoki yo'qligini tekshirish.

## III bo'lim. ULUSHLAR. KATTALIKLAR. GEOMETRIK SHAKLLAR (45 soat)

**Ulush tushunchasi.** Sonning ulushini sonlar yordamida ifodalash, modellarda tasvirlash. Sonning ulushiga doir topshiriqlar.



**Sonning ulushini topish.** Sonnng ulushini topish. Ulushlarni (qismlarni) taqqoslash.

**Ulushiga ko'ra sonni topish.** Ulushiga (qismiga) ko'ra sonni topish. Qismlarni taqqoslash.

**To'plamning qismi.** To'plamning qismini topish. To'plamni qismlarga ajratish.

**Geometrik shakllarni qismlarga bo'lish.** Geometrik shakllarni qismlarga bo'lishga doir masalalar.

**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

**Yuz o'Ichov birliklari.** Yuzi 1 kv.m ( $m^2$ ), 1 kv. dm ( $dm^2$ ), 1 kv.sm ( $sm^2$ ), 1 kv. mm ( $mm^2$ ) ga teng bo'lgan shakllar. Berilgan perimetri yoki tomonlari bo'yicha to'g'ri to'rtburchak chizish va uning yuzini hisoblash. Yuzlarni taqqoslash.

**Vaqt o'Ichov birliklari.** Vaqt o'Ichovi birliklari: asr, yil, oy, sutka, soat, minut (daqiqa), sekund (soniya). Ular orasidagi munosabatlari: 1 min (daq) = 60 sek, 1 soat = 60 min (daq), 1 sutka = 24 soat, 1 yil = 12 oy, 1 asr = 100 yil.

**Chiziqli va ustunli diagrammalar.** Chiziqli va ustunli diagrammalar yordamida berilgan ma'lumotlar.

**Shakllarni burish. Burchak simmetriyasi.** Shakllarni burish orqali ularning joylashuvini o'zgartirish. Burchak simmetriyasi haqida tushuncha.

**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

**Sodda fazoviy shakllar (piramida, konus) haqida tushuncha.** Sodda fazoviy shakllar (piramida, konus) va ularning tasvirlari.

**Ma'lumotlarni turli ko'rinishda ifodalash.** Turli ko'rinishda berilgan statistik ma'lumotlarni taqqoslash va ulardan foydalanib misol va masalalar yechish.

**Mavzular kesimida misol va amaliyotga yo'naltirilgan mantiqiy masalalar.** Ikki amallli masalalar va ularning sodda masalardan farqi.

**Ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy topshiriqlar.** O'Ichov birliklari tarixidan (chaqirim, qarich, tirsak, gaz, botmon).

#### **IV bo'lim. O'N MING ICHIDA RAQAMLASH. ARIFMETIK AMALLAR.**

##### **KATTALIKLAR**

**(40 soat)**

**To'rt xonali sonlarni raqamlash.** To'rt xonali sonni xona birliklari yig'indisi ko'rinishida tasvirlash. To'rt xonali sonlarni taqqoslashda xona birliklarining o'rni. To'rt xonali sonlarni raqamlash orqali arifmetik amallar bajarishga tayyorlash.

**O'n ming ichida qo'shish va ayirish.** Natijasi 10 000 ichida bo'lgan ikki, uch va to'rt xonali sonlar ustida qo'shish va ayirishning usullari.



**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

**Matematika tarixidan.** Sonlarni dastlab raqamlar ko'rinishida ifodalashga ehtiyojlarning paydo bo'lishi.

**Rim raqamlari.** Rim raqamlari bilan tanishtirish.

**O'n ming ichida ko'paytirish va bo'lish.** 10, 100, 1000 ga og'zaki ko'paytirish va bo'lish. Uch va to'rt xonali sonlarni yozma ko'paytirish usullari. To'rt xonali sonni yozma bo'lish usullari. Yechimlarni kalkulyator yordamida tekshirish.

**Ko'paytirish va bo'lishni tekshirish.** Ko'paytirishni bo'lish, bo'lishni ko'paytirish yordamida tekshirish usullari. Qoldiqli bo'lishni tekshirish.

**Mantiqiy turdag'i misol va masalalar.**

**Uzunlik o'lchov birliklari va ular orasidagi munosabatlar.** Uzunlik o'lchov birliklari va ular orasidagi munosabatlar: kilometr-detsimetr, metr-millimetrr.

**Massa o'lchov birliklari va ular orasidagi munosabatlar.** Massa o'lchov birliklari- gramm(g), kilogramm(kg), sentner(q), tonna(t) va ular orasidagi bog'lanishlar: kilogram-gramm, kilogramm-sentner, tonna-kilogram, tonna-sentner.

**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

## Takrorlash (10 soat)

### MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy topshiriq va nazorat ishi
	2-sinfda o'tilgan materialni takrorlash va umumlashtirish	10		10
1	Jadvaldan tashqari ko'paytirish va bo'lish. Geometrik shakllar	45	18	27
2	Ifodalar. Mulohaza. Tengsizliklar. Geometrik shakllar	20	6	14
3	Ulushlar. Kattaliklar. Geometrik shakllar	45	15	30
4	O'n ming ichida raqamlash. Arifmetik amallar. Kattaliklar	40	15	25
	Takrorlash	10		10
Jami:		170	54	116



## IV SINF

### III SINFDA O'TILGAN MATERIALLARNI TAKRORLASH VA UMUMLASHTIRISH (5 soat)

**O'n ming ichida raqamlashga oid misol va masalalar.** 10 000 ichida nomanfiy butun sonlarni taqqoslash, qo'shish va ayirishning usullari, 10, 100, 1000 ga ko'paytirish va bo'lishga doir misol va masalalar. 10 000 ichida sonni bir xonali songa ko'paytirish va bo'lishni o'z ichiga olgan tarkibli masalalar.

**Tengsizliklarni tanlash usuli bilan yechish.** Tengsizliklarni yechishning tanlash usuli (natijada tengsizlik to'g'ri bo'ladigan barcha qiymatlarni topish).

**Ikki amalli masalalar.** Ikki amalli masalalar va ularning yechimlarni taqqoslash (arifmetik amallarning xossalariiga doir masalalar)

### I bo'lim. MILLIONGACHA BO'LGAN SONLAR. RAQAMLASH (20 soat)

**Birlar, minglar sinfi. Birlar va minglar sinfida I, II, III xonalar.** Yangi sanoq birligi – million. Ko'p xonali sonlarni o'qish va yozish, ular orasidagi munosabat. Sonlarni yozishda raqamning o'rinni qiymati (amalda ishlatalishi).

**Million ichida ko'p xonali sonlarni taqqoslash.** Sonni uning xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida ifodalash. Million ichida ko'p xonali sonlarni taqqoslash.

**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

**Million ichida qo'shish va ayirish.** Million ichida qo'shish va ayirish amallarini bajarishning o'g'zaki va yozma usullari.

**Qirqma shakllar: Bir xil qismlardan tuzilgan har xil shakllar.** Qirqma shakllar: buklanadigan ko'pburchaklarni yasash. Bir xil qismlardan tuzilgan har xil shakllar bilan tanishtirish.

**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

### II bo'lim. TENGLAMALAR. TENGSIZLIKLER. KATTALIKLAR (35 soat)

**Qo'shishning o'rinni almashtirish va guruhlash xossasi.** Hisoblashlarda qo'shishning o'rinni almashtirish va guruhlash xossasini qo'llash. Qo'shish va ayirishni o'z ichiga olgan 2 - 3 amalli ifodalar.

**Natijani tekshirish usullari.** Natijalarni tekshirishda to'g'ri va teskari bog'lanish. Qo'shish va ayirishda sonlar orasidagi bog'lanish.

**Tenglamalar.** Million ichida sonlarni qo'shish va ayirishga doir tenglamalar.  $(20\ 000+x)-9\ 720=35\ 640$ ,  $(70\ 020-x)-1\ 600=53\ 480$



ko'rinishidagi tenglamalar va natijalarini tekshirish. Masalalarni tenglamalar yordamida yechish.

**Tengsizliklar.**  $3 + x < 5$ ;  $6 - x > 4$ ;  $5 \cdot x < 35$ ;  $36 : x > 4$  ko'rinishidagi tengsizliklarda x noma'lumning qiymatini tanlash usuli bilan topish.

**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

**Kattaliklarni qo'shish va ayirish.** Bir xil kattaliklarni qo'shish va ayirishga doir masala tuzib yechish. Ismli sonlar ustida amallar bajarish.

**O'rta arifmetikni topish.** Nomanfiy butun sonlarni o'rta arifmetigini topishga doir masalalar.

**Massa birliklari orasidagi bog'lanishlar.** Massa birliklari: gramm, kilogramm, sentner, tonna. Bir o'Ichov birligidan ikkinchisiga o'tish.

**Xalqaro o'Ichov biliklari orasidagi bo'gliqlik.** Xalqaro o'Ichov biliklari (S-... M-... L-... X-... XL-...) orasidagi bo'gliqlik.

**Geometrik mazmundagi amaliy masalalar.** Berilgan perimetrdagi to'g'ri to'rtburchak (kvadrat) chizish, shakllar yasash. Obyekt va model.

**Mantiq elementlari.** Mulohaza, mulohazaning rostlik qiymati, rost va yolg'on mulohazalarga misollar.

**Qiziqarli va mantiqiy masalalar.** O'rganilgan mavzular asosida qiziqarli va mantiqiy (muammoli) topshiriqlar.

### **III bo'lim. MILLION ICHIDA SONLARNI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH. FORMULARAR. SHKALARALAR (35 soat)**

**Million ichida ko'paytirish va bo'lish.** Ko'paytuvchilar va ko'paytma; bo'linuvchi, bo'luvchi va bo'linma orasidagi o'zaro bog'lanishlar. Bo'lish va ko'paytirish amali bilan yechiladigan masalalar.

